1. Formation of a system of elementary mathematical representations in preschoolers. From the content side, the most important in the sense of the formation of primary simple representations are such fundamental mathematical concepts as "set "relation "number "quantity". These concepts are widely represented in the initial training, but not in the direct sense, but from the point of view of the propaedeutics of formation, only an idea of them. Figuratively speaking, a child in kindergarten comprehends "sciences before science and naturally this is due to the fact that, in their psychological structure, elementary mathematical representations have a figurative nature. The gradual complication of knowledge mastered by children consists in increasing both the volume of quantitative) spatial and temporal representations, and the degree and generalization. The system of knowledge and initial ideas about sets, relationships, numbers and quantities, although it is very limited, by the scope of learning opportunities for preschoolers, is significant for further mastering the concepts of school mathematics. Elementary mathematical representations and the corresponding methods of action are the main components of the knowledge system for preschoolers.

2. The formation of the prerequisites of mathematical thinking and individual logical structures necessary for mastering mathematics in school and general mental development. Mastering the initial mathematical concepts contributes to the improvement of the cognitive activity of the child as a whole and its individual sides, processes, operations, actions. The formation of the logical structures of thinking - classification, ordering, understanding the preservation of quantity, volume mass, etc., acts as an important independent feature of the general mental and mathematical development of a preschool child.

3. The formation of sensory processes and abilities. The main direction in teaching young children is the implementation of a gradual transition from specific, empirical knowledge to a more general one. Empirical knowledge formed on the basis of sensory experience is a prerequisite and necessary condition for the mental and mathematical development of preschool children.

Foreign language lesson has its own specificity, unlike other school subjects; the main objective of a foreign language lesson is the formation of intercultural communicative competence of learners. At the present moment the global aim of teaching foreign language is involvement to other culture and participation in dialogue of cultures. This aim is gained by the way of formation the ability to intercultural communication. The process of teaching foreign language is organized on the basis of communicative character tasks; teaching foreign language communication using all necessary for this work means is a distinctive feature of a foreign language lesson.

REFERENCES

1. **Sh. Mirziyoyev** *Together we will build a free, democratic and prosperous state of Uzbekistan* Tashkent: "Uzbekistan 2016. 56 p.

2. **Arushanova A** *Tasks and forms of organized learning* . ."Preschool education. 1994, No. 1.pp. 41-44.

3. **Asmolov A** *On the organization of interaction of educational institutions and ensuring continuity of preschool and primary general education* ".Preschool education. 1994, No.6. pp. 2-5.

4. **Ashikov V** *Preschool education inthe new century* ".Preschool education.2000, pp. 11.

5. **Altshuller G.S** *Find an idea. Introduction to the theory of inventive problem solving.* ". Novosibirsk: Nauka, 1986, 1991.

УДК 51

Funksiya tushunchasining mazmunini samarali oʻzlashtirish haqida

Arziqulov A.U.[1], Raxmonov S.[2]
[1]Samarqand davlat universiteti; a.arziqulov@mail.ru
[2]Oʻzbekiston Finlandiya pedagogika instituti; raxmonovsamariddin348@gmail.com

Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida maktab algebra kursining mazmuni to'rtta asosiy yo'nalishlardan tashkil topgan: 1) son tushunchasi 2) funksiya tushunchasi(funksional bog'lanishlar) 3) tenglama va tengsizliklar 4) ayniy almashtirishlar. Bular orasida funksiya tushunchasini o'qitish muhim o'rinni egallaydi. 5-6 sinflarning matematika kurslarida funksional bog'lanishlarga tayyorgarlik ko'riladi. 7-9 sinflar algebrasida funksional bog'lanishlarga doir materiallar tizimli shaklda o'rganiladi.Yuqori sinflarda esa funksional bog'lanishlar va ularning asosiy xossalari keng o'rganiladi.

Funksiya tushunchasini o'quvchilarga o'rgatish muammosi taniqli matematiklarning ishlarida o'rganilgan, jumladan, Bernshteyn S.N., Markushevich A.I., Shilov G.E., Kolmogorov A.N., Dorofeev G.V.

Yu.Kolyaginning fikricha "Funksiya, uning xossalari va grafigi maktab matematikasining asosini tashkil etadi. Funksional yo'nalish atrofida zamonaviy maktab algebrasi, matematik analiz asoslarni va ma'lum darajada geometriya ham samarali o'rganiladi. Bu yo'nalishning o'ziga xosligi va muhimligi shundaki, unda fan ichidagi va fanlararo aloqalar o'rnatiladi"(Kolyagin) . Nemis matematigi va pedagogi Feliks Kleyn(1849-1925) funksiya tushunchasining matematikada yetakchi o'rni haqida o'zining "Елементар математика с точки зрений висшеви"nomli kitobida shunday deb yozadi: "Zamonaviy matematikada qaysi tushuncha ustivorlik qiladi? Bu funksiya haqidagi tushunchadir. Funksiya tushunchasi maktab matematikasida asosiy va boshqaruvchi vazifani bajarishi kerak. Bu tushunchani o'quvchilarga juda erta o'rgatish kerak va uni butun algebra va geometriyani o'qitish jarayoniga singdirib yuborish kerak".

Yuqoridagi fikrlarni amalga oshirish bo'yicha maktab matematikasida funksiya tushunchasini o'rgatish metodikasini takomillashtirish maqsadida ma'lum bir nechta shartlarni qanoatlantiruvchi funksiyalarga doir misollar tizimini yaratish yondoshuvni taklif qilamiz: 1) Bir nechta formulalar bilan berilgan funksiyalarni tuzish va ular bilan arifmetik amallar bajarish(chekli va cheksiz to'plamlarda aniqlangan). 2)Ayrim nuqtalarda funksiyalarni aniqlamaydigan formulalarga doir misollar qurish. 3) Bir-biridan cheklita nuqtalardagina farq qiluvchi funksiyalarga doir misollar tuzish. 4) Ma'lum bir nechta xossalarga ega bo'lmagan funksiyalarga doir misollar qurish, masalan segmentda chegaralanmagan funksiyaga misollar tuzish va shunday funksiyalarga misollar keltiramiz.

$$f(x)=\begin{cases} f_1(x), & x\in A_1,\\ f_2(x), & x\in A_2,\\ f_3(x), & x\in A_3,\end{cases}\quad A_1\cap A_2\cap A_3=\varnothing,\ D(f)=A_1\cap A_2\cap A_3,\ \ A_1,A_2,A_3\subset R$$

1) Uchta formula bilan berilgan bitta funksiya. Agar $A_1\cap A_2\cap A_3\neq\varnothing$ boo'lsa, bu 3 ta formula bilan berilgan f qonuniyat funksiyani aniqlamaydi.

2) Chekli to'plamda aniqlangan funksiyalarning yig'indisini topish ,

$$f_0(x)=\begin{cases} b_1, & x=a_1,\\ b_2, & x=a_2,\\ b_3, & x=a_3,\end{cases}\qquad a_1\neq a_2\neq a_3$$

$$f_1(x)=\begin{cases} c_1, & x=a_1,\\ c_2, & x=a_2,\\ c_3, & x=a_3,\end{cases}\qquad (f_0+f_1)(x)=\begin{cases} b_1+c_1, & x=a_1,\\ b_2+c_2, & x=a_2,\\ b_3+c_3, & x=a_3,\end{cases}$$

3) Cheksiz va chegaralangan to'plamlarda aniqlangan funksiyalarning yig'indisini topish

$$g_1(x) = \begin{cases} 3, & x \in [-3,\, 0], \\ 2, & x \in (0,\, 2], \qquad D(g_1) = [-3,\, 3] \\ 1, & x \in (2,\, 3], \qquad E(g_1) = \{1, 2, 3\} \end{cases}$$

$$g_2(x) = \begin{cases} -1, & x \in [-2,\, 0], \\ 3, & x \in (0,\, 1], \qquad D(g_2) = [-2,\, 4] \\ 2, & x \in (1,\, 3], \qquad E(g_2) = \{-1, 2, 3\} \end{cases}$$

$$(g_1 + g_2)(x) = \begin{cases} 2, & x \in [-2,\, 0], \\ 5, & x \in (0,\, 1], \qquad D(g_1 + g_2) = [-2,\, 3] \\ 4, & x \in (1,\, 2], \qquad E(g_1 + g_2) = \{2, 3, 4, 5\} \\ 3, & x \in (2,\, 3], \end{cases}$$

4) Berilgan chiziqli funksiyadan faqat chekli nuqtalardagina farq qiluvchi funksiya qurishga doir misol.

$$f(x) = 3x + 2, \;\; x \in [-2,\, 3],$$

$$f_1(x) = \begin{cases} 3x + 2, & x \in [-2,\, 3] \; \{-1, 0, 1, 2\}, \\ 1, & x = 1, \\ -1, & x = 0, \qquad f(x) = f_1(x), \;\; x \in [-2,\, 3] \; \{-1, 0, 1, 2\}, \\ 4, & x = 1, \qquad f(x) \neq f_1(x), \;\; x \in \{-1, 0, 1, 2\}, \\ 3, & x = 2. \end{cases}$$

5) Segmentta chegaralanmagan funksiyalarga doir misollar.

$$f_1(x) = \begin{cases} \dfrac{1}{x}, & x \in [-1,\, 0) \cup (0,\, 1], \\ 1, & x = 0, \qquad D(f_1) = [-1,\, 1]. \end{cases}$$

$$f_2(x) = \begin{cases} \operatorname{tg} x, & x \in (-\dfrac{\pi}{2},\, \dfrac{\pi}{2}), \\ -1, & x = -\dfrac{\pi}{2}, \qquad D(f_2) = [-\dfrac{\pi}{2},\, \dfrac{\pi}{2}]. \\ 1, & x = \dfrac{\pi}{2} \end{cases}$$

Bunday topshiriqlarni bajargan o'quvchilar funksiya tushinchasining mazmunini chuqur tushinib, funksiyaning boshqa xossalalarini tez o'zlashtiradilar.

Литература

1. **Бернштейн С.Н.** *Понятие функции в средней школе. Доклады читанные на Всероссийском съезде преподавателей математики в Москве, Москва.* : 1915.
2. **Маркушевич А.И.** *Понятие функции. Математика в школе.* : 1947, № 4.
3. **Шилов Г.Е.** *Что такое функция? , Математика в школе.* : 1964. №1. С.7-15.
4. **Колмогоров А.Н.** *Что такое функции. Математика в школе.* 1978. №2.
5. **Дорофеев Г.В.** *Понятие функции в математике и школе, Математика в школе.* 1978. №2.

УДК 371:38.014

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKANI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH METODOLOGIYALARI

Avliyoqulov. A A.
Termiz davlat universiteti, Termiz, O'zbekiston; avliyoqulov2017@gmail.som

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk avlodni tarbiyalash muhim masala hisoblanadi"[1, 4-5-b.] degan so'zlari O'zbekiston taraqqiyotining keyingi bosqichida barcha sohalarda, jumladan, muhim strategik jabha-yoshlar tarbiyasida ham amal qilinishi zarur bo'lgan bosh maqsadimizni belgilab berdi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa, umumta'lim maktablarida matematika fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish uzviyligini ta'minlash va matematika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, takomillashtirishni, interfaol, interaktiv, usullarni keng ko'lamda bosqichma-bosqich amalda joriy etishni talab etadi. Integrasiya atamasi bir butunlik degan ma'noni anglatadi, matematik fanlar integrasiyasi deganda fanlar mazmunining o'zaro singishi va aloqalari nazarda tutiladi. Integrasiya muammosi fanning rivojlanishi bilan bog'liq2"[2, 92-b.]. Bu esa, matematikani o'qitishda integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish va boshqa fanlar doirasida ham qisman o'zlashtirilgan bo'lib ularni o'zlashtirish o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi va ularni bilim darajasini to'ldirishga yordam beradi. "Integrasiya-chuqur noan'anaviy ta'lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o'quv materialining uyg'unlashuvini o'zida namoyon etadi"3. [3, 108-b.]. Ensiklopedik va ilmiy adabiyotlarda "integrasiya"atamasini turli tipdagi qismlar va elementlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'langan rivojlanish jarayoni sifatida tushuniladi.

Integrasiya-ayrim bo'laklarni yoki elementlarni bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. "Integrasiya tushunchasi XVIII asrdayoq ingliz filosofi va sosiologi Gerbert Spenser tomonidan izohlangan edi"4.[4, 67-b.].

Integrasion dars odatdagi darslardan:

-aniqligi, ixchamligi, o'quv materialining zich ko'lami;

-darsning har bir bosqichida integrasiyalanayotgan o'quv fanlarning har tomonlama mantiqiy sharhlanganligi;

-berilayotgan o'quv materidagi keng ko'lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

Integrasiyalashgan darsda maqsadni bir necha fanlarning aloqadorligini inobatga olgan holda belgilash lozim bo'ladi. Integrasion darsning yutuqli jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Bu turdagi mashg'ulotlarda o'quvchi olamni bir butun yaxlit holda tasavvur etishni boshlaydi.

2. O'quvchi potensiali rivojlanadi, tevarak atrofni katta qiziqish bilan o'rganishga kirishadi, hodisalar uning ongida mantiqiy, fikriy, sababli yechimni qidirib topishga unday boshlaydi.

Natijada, o'quvchilarda muloqot qobiliyati, taqqoslash-qiyoslash, umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyatlari taraqqiy eta boradi. Darslarni integrasion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o'tishini, balki o'quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Fanlararo, bog'liqlik, fanlararo falsafiy masalalarni shaxsan his etmay turib, o'quvchiga integrasion mashg'ulotni taqdim etmaslik to'g'ri bo'ladi, zero, anglanmagan integrasiya o'quvchi ongidagi bilish jarayonini mavhum holatga, u orqali chalkash xulosalarga taqab qo'yadi. Matematika darslarini integrativ-innovasion yondashuvlar asosida o'tish o'qituvchiga yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali o'quv xonasida ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. O'quvchilarga matematik savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Bundan tashqari, matematika fanining uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketlik asosida va darsni integrasiyalashgan holda mavzuning mohiyatini ochib berish kerak. Integrasiyalashgan darslar yosh avlodda tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Matematikani o'qitishda integrativ metodlar asosida yondoshgan holda tashkil etish va texnologik jarayonlar metodidan foydalanish masalalarining keng talqin qilinishi bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Umumta'lim maktablari o'quvchilariga matematika fanini o'qitishda integrativ yondashuv asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zaruriyat tug'ilishi;

2. Matematikani o'qitishda integrativ yondashuvlar metodologiyasini o'quv jarayoniga tadbiq etish

usullari;

Matematika fani-ta'limning boshqa fanlari bilan uzviy bog'lanadi. Matematika darslarida fanlararo bog'lanishlarni ishlab chiqish uchun o'quvchining psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olib, shunga mos ravishda dars o'tish metodini yo'lga qo'yish va hozirgi zamon talabini, o'quvchilarning ham ruhan, ham jismonan, ham aqlan imkoniyatlarini hisobga olishimiz kerak bo'ladi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Biz matematika darslarini o'tish jarayonida ayniqsa integrasion yondashuv metodologiyasidan foydalanish natijasida qanday yutuqlarga erishamiz va qanday kamchiliklarga yo'l qo'yamiz? Matematika darslarida mavzuni o'quvchilarga integrasiyalashgan holda tushuntiradigan bo'lsak o'quvchi ongiga mavzuning mohiyatini singdiribgina qolmay balki ularni boshqa fanlarga ham bo'lgan qiziqishini orttirgan bo'lamiz. Umumta'lim maktablari asosan matematika fanini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu fanni o'qitishda integrativ yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarni dunyoqarashlari kengayib ijodiy salohiyatlari rivojlanadi. O'quvchilarga fanlararo integrasiyalashni yo'lga qo'yish matematika fanini o'qitishda algebra va geometriya fanini o'rganish bilan birga fizika biologiya, geografiya, atrofi olam, jamiyat haqidagi tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Maktab matematika kursining amaliy ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Matematika umumiy o'rta ta'limning tayanch fanlaridan biridir. U boshqa fanlarni o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu birinchi navbatda tabiiy yo'nalishdagi fanlarga talluqlidir. Matematikani o'qitishda integrativ yondashuvlar metodologiyasi asosida tashkil etishning shakli va mazmunidan kelib chiqib fanning xususiyatini hisobga olgan holda o'quvchilarga bilim berish tavsiya etiladi.

Integrasiyalashgan dars . -bunday dars usuli fanlararo aloqani bog'lash, qo'llash maqsadida o'tkazilib, umumiy bilimdonlik darajasini aniqlash. Shunday ekan matematikani o'qitishda integrasion yondashuvlar metodologiyasini yaratib, matematika darslarida foydalanilsa o'quvchilar matematika fani bilan boshqa fanlarning o'zaro bog'liqligini anlaydi va his qiladilar. Bu bilan esa biz o'quvchilarga matematika fanini yanada chuqurroq o'rgatishga zamin yaratamiz. Matematikani o'qitishda integrativ metodlar uslubiy yondashuvda o'quvchilar bilish va o'rganish jarayoniga butunlay sho'ng'ib ketadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylayotganlari xususida bahslashishlari ham mumkin. Matematikani o'qitishda integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish va o'qitish mavzular boshqa fanlar doirasida ham qisman o'zlashtirilgan bo'lib ularni o'zlashtirish o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi va ularni bilim darajasini to'ldirishga yordam beradi. Biz yuqorida keltirgan bu integrtiv usullardan ta'lim jarayonida foydalanish yuqori samara beradi. Matematikaning boshqa fanlar integrasiyalashuvi, mantiqi va izchilligi, ularni eng zamonaviy boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish takomillashtirish va liberalashtirish bo'yicha ehtiyojlar sezilmoqda. Integrasiyalashgan darsning muammosi-bu ikkita o'qituvchining o'zaro ta'siri texnologiyasi, ularning ketma-ketligi va tartibi, materialning taqdim etishning mazmuni va usullari, har bir harakatning davomiyligidir.

Metodologiya . (metod va ...logiya so'zlaridan)-tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi umumiy bilish metodi, deb ham ta'riflanadi. Metodologiyaga ilmiy bilishning, voqyeylikni anglash va o'zgartirishning algoritmi sifatida ham qarash mumkin. Metodologiya haqida F. Bekkon, R. Dekart, J.Lokk, G.Galiley va boshqalar yevropalik olimlar maxsus kitoblar yozishgan. Shuningdek, metodologiya rivojiga I. Kant, Fixte, Shelling, Gegel jiddiy hissa qo'shishgan. Metodologiyaning asoslarini ishlab chiqdi5". [5, 414-b.]. Integrasiyalashgan darslar yosh avlodda tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tassavurlarni shakllantirishga yordam beradi. Matematika fanini o'qitishda integrativ yondashuv asosida tashkil etish hamda o'qitishning konseptual asoslarini ishlab chiqish shu bilan birga o'qitishning metodologiyasi faoliyatini samaradorligini oshirish nazarda tutadi. Bu esa umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarning matematik bilimini oshirishda xizmat qiladi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga va integrativ metodlarga yondoshgan holda dars o'tishga katta e'tibor berishimiz lozim. Matematikani o'qitishda integrativ metodlar orqali o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish va kengaytirishdan iborat. Matematik integrasiya o'zining texnologi, infratuzilmasi, o'z tayanch ta'lim texnologiyalariga ega. Matematikani fanlararo integrasiya-ta'lim jarayoni va uning barcha o'qitilish shaklida didaktik shart sharoitlarni takomillashtiruvchi hodisadir. Matematika darsida integrasion aloqadorlikni ta'minlashda o'zaro bir-biriga yaqin o'quv predmetlarining materiallari nihoyatda talabchanlik bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Umumta'lim maktablarida beriladigan matematik bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchilarning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi.

Adabiyotlar

1. **Sh. Mirziyoyev** *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz* Toshkent. "O'zbekiston"nashriyoti. 2017 yil. 36 bet.
2. **X. Islomov, A. Avliyoqulov** *Matematik ta'limda algebraik va geometrik metodlar integrasiyasi masalasini mavjudligi va uning yechimlari haqida* . "."Pedagogik mahorat"jurnali. Buxoro sh. 2014 y. №3-soni. 116 bet.
3. **Kukushin V.S** *Pedagogika nachalnogo obrazovaniya* ".Moskva, 2005 god. 251 stranisa.
4. **Shorustamova D.S.** *Boshlang'ich ta'lim darslarini integrasiyalashda pedagogik - psixologik yondashuv* ".Magistr akademik darajasini olish uchun yozigan dissertasiya. Toshkent. 2014 yil. 98 bet.
5. **O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi** *Davlat ilmiy nashriyoti* ". Toshkent 2003 y. 5-jild, 618 bet.

Koshining integral formulasi mavzusini o'qitishda Maple amaliy dastur paketidan foydalanish

Boboyarova N. A.[1], Abdullayev J. Sh.[2], Xayitboyev S.X.[3]
[1,2,3]Urganch davlat universiteti;
boboyarova@gmail.com jonibekabdullayev1201@gmail.com sobirjon5152@gmail.com

Oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining asosiy vazifasi o'qitish sifatini yangi pog'onaga ko'tarishdan iboratdir. Shunga ko'ra, talabaga munosabat, ularga yondashish tamoyillari o'zgardi. Dars jarayonida har bir talabaga uning o'ziga xos xususiyatlari va shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda o'quv jarayonida ishtirok etishi uchun sharoit va imkoniyat yaratildi. Bunday yondashishda talabalar o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish, olgan bilimlarini amaliy qo'llash hamda kundalik hayotimizda qayerda, qanday va qaysi maqsadlarda qo'llanilishini anglab olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Yangi axborot – kommunikatsion texnologiyalari hozirgi vaqtda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning uchun bu texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvoffiqdir.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasini o'rganish va tahlil qilish o'ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasi fanini o'qitishdagi innovatsiyalar, ishchi o'quv dasturi, ma'ruza matnlari, keyslar, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari shu kunga qadar oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan lozim darajada ishlab chiqishga e'tibor kuchaytirilyapti.

Oliy ta'lim muassasasining o'qituvchilari tayyor elektron resurslar asosida dars o'tish bilan chegaralanmasdan balki, ta'limiy resurslarni yaratish hamda uni amalda qo'llovchi o'qitishning zamonaviy texnologiyalari imkoniyatlardan samarali foydalanish fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini talabalarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim. Ushbu ishda Kompleks ozgaruvchili funksiyalar nazariyasi fanidagi Koshining integral formulasi mavzusini o'qitishda nazariy va amaliy masalalarini analiz etish, hamda bu mavzuga doir misollarni Maple amaliy dasturlar paketidan foydalanish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi, hamda bu mavzuni talabalar chuqur tasavvurga ega bo'lishi uchun tavsiyalar beriladi.

Dastlab, kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasida fundamental teorema hisoblanadigan Koshi teoremasidan kelib chiqadigan Koshining integral formulasini keltiraylik. Aytaylik bizga, $\mathbb{C}$

kompleks tekislikda chegaralangan D soha berilgan bo‘lsin. Bu sohaning chegarasi silliq (yoki bo‘lakli silliq) chiziqdan iborat bo‘lib, bu yopiq egri chiziq musbat yo‘nalishda olingan va $\overline{D} = D \cup \partial D$ to‘plamda $f(z)$ funksiya aniqlangan bo‘lsin. Quyidagi teorema o’rinli. (qarang [1-3])

Teorema 1. *Agar $f(z)$ funksiya D sohada golomorf bo‘lib, uning $\overline{D}$ yopig’ida uzluksiz bo‘lsa, u holda ixtiyoriy $z \in D$ nuqta uchun*

$$f(z) = \frac{1}{2\pi i}\int\limits_{\partial D}\frac{f(\xi)}{\xi - z}d\xi \tag{1}$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Bu teoremadagi (1) formulaning o‘ng tomonidagi integral *Koshi integrali*, integral ostidagi ratsional ifoda $\frac{1}{\xi - z}-$ *Koshi yadrosi* deyiladi, (1) formula esa Koshining integral formulasi deyiladi. Koshining integral formulasi $f(z)$ golomorf funksiyaning D sohadagi qiymatlarini uning ∂D chegarasidagi qiymatlari orqali ifodalaydi. Demak, golomorf funksiya o‘zining chegaradagi qiymatlari bilan to‘la aniqlanadi. Koshi teoremasiga asosan, yuqoridagi 1-teoremani umumiy holda quyidagicha keltiramiz.

Teorema 2. *Agar $f(z)$ funksiya D sohada golomorf bo‘lib, $\overline{D}$ da uzluksiz bo‘lsa, u holda ushbu*

$$\frac{1}{2\pi i}\int\limits_{\partial D}\frac{f(\xi)}{\xi - z}d\xi = \begin{cases} f(z)\,,\ z \in D\,, \\ 0,\ \ z \in \mathbb{C}\backslash\overline{D}\,, \end{cases}$$

munosabat o‘rinli, bu yerda $\partial D-$ oriyentrlangan (musbat) yo‘nalish.

Ma’lumki, golomorf funksiyaning istalgan tartibli hosilasi ham golomorf bo’ladi, hamda Koshining integral formulasidan golomorf funksiyaning istalgan $n-$ tartibli hosilasini topilishi haqidagi quyidagi teorema o’rinli.

Teorema 3. *Agar $f(z) \in \mathcal{O}(D) \cap C\left(\overline{D}\right)$, u holda $f(z)$ funksiya D sohadada istalgan tartibli hosilaga ega bo‘lib,*

$$f^{(n)}(z) = \frac{n!}{2\pi i}\int\limits_{\gamma}\frac{f(\xi)}{(\xi - z)^{n+1}}d\xi \ \ (n = 1,\,2,\,3,\,...) \tag{2}$$

formula o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda $\gamma-$ D sohada yotuvchi (bo‘lakli silliq) yopiq chiziq bo‘lib, z esa γ chiziq bilan chegaralangan sohaga tegishli nuqta

Quyida Koshining integral formulasidan foydalanib kompleks o‘zgaruvhili funksiyalarning integrallari hisoblashda Maple amaliy dastur paketidan foydalanish keltirilgan. Bu misollardan matematik masalalarni yechishda kompyuter matematikasining zamonaviy imkoniyatlarini qo‘llash katta samara berishini ko‘rish mumkin.

1-Misol. Ushbu

$$\oint\limits_{|z-2i|=2}\frac{dz}{z^2+9}$$

integralni hisoblang.

Yechish. Avvalo bu untegralni Koshi integrali ko‘rinishiga keltirib olamiz:

$$I = \oint\limits_{|z-2i|=2}\frac{dz}{z^2+9} = \oint\limits_{|z-2i|=2}\frac{dz}{(z+3i)(z-3i)} = \oint\limits_{|z-2i|=2}\frac{\frac{1}{(z+3i)}}{(z-3i)}dz$$

Bundan $f(z) = \frac{1}{z+3i}$ va $a = 3i$ nuqta

$$D = \{z \in \mathbb{C} :\ |z - 2i| < 2\}$$

doira ichida $(-3i)$ doira tashqarisida yotadi. Demak $f(z)$ funksiya D doirada golomorf. U holda ushbu

$$\int\limits_{\partial D}\frac{f(z)}{z-a}dz = 2\pi i \cdot f(a) \tag{3}$$

Koshining formulasiga asosan: $I = 2\pi i \cdot f(3i) = 2\pi i \cdot \frac{1}{3i+3i} = \frac{\pi}{3}$ Demak,

$$\oint\limits_{|z-2i|=2} \frac{dz}{z^2+9} = \frac{\pi}{3}$$

Maple dasturida yechilishi:

> z0:=2*I:R:=2:abs(z-z0)=R;z:=x+y*I:
> with(plottools):with(plots):
> c:=implicitplot(abs(z-z0)=R,x=-5..5, y=-5..5,color=black,thickness=3):
> p0:=pointplot([Re(z0),Im(z0)],color=black,symbol=CIRCLE,symbolsize=26):
> p1:=pointplot([Re(z0),Im(z0)],color=black,symbol=CIRCLE,symbolsize=36):
> p2:=textplot([Re(z0),Im(z0)+2,"z0"],align=BELOW):
> p3:=pointplot([0,(-3)],symbolsize=45,symbol=CIRCLE,color=red):
> p4:=pointplot([0,3],symbolsize=45,symbol=CIRCLE,color=red):
> display([c,p0,p1,p2,p3,p4]);
> f:=z->1/(z+3*I):'f(z)'=f(z);
> z0:=2*I:R:=2:C:=abs(z-z0)=R:
> Int(1/(z^2+9),z=C..")=2*Pi*I*f(3*I);

2-Misol. Quyidagi

$$\oint\limits_{\gamma} \frac{\sin z}{z+i} dz$$

integralni hisoblang, bu yerda $\gamma = \{z \in \mathbb{C} : |z+i| = 3\}$ aylanadan iborat.

Yechish. Bu γ chiziq bilan chegaralangan soha

$$D = \{z \in \mathbb{C} : |z+i| < 3\}$$

da $a = -i$ nuqta yotgani uchun, $f(z) = \sin z$ funksiya bu sohada golomorf u holda (3) Koshining integral formulasiga koʻra:

$$\int\limits_{\partial D} \frac{f(z)}{z-a} dz = 2\pi i f(a)$$

ya'ni

$$\oint\limits_{|z+i|} \frac{\sin z}{z-(-i)} dz = 2\pi i \sin(-i) = -2\pi i \cdot \frac{1}{2i}(e - e^{-1}) = -2\pi sh1$$

ekani kelib chiqadi

Maple dasturida yechilishi:

> z0:=-I:R:=3:abs(z-z0)=R;z:=x+y*I:
> with(plottools):with(plots):
> c:=implicitplot(abs(z-z0)=R,x=-5..5,y=-5..5,color=black,thickness=3):
> p0:=pointplot([Re(z0),Im(z0)],color=black,symbol=CIRCLE,symbolsize=26):
> p1:=pointplot([Re(z0),Im(z0)],color=blue,symbol=CIRCLE,symbolsize=36):
> p2:=textplot([Re(z0),Im(z0)-1,"z0"],align=BELOW):
> p3:=pointplot([0,(-1)],symbolsize=65,symbol=CIRCLE,color=red):
> > display([c,p0,p1,p2,p3]);
> > f:=z->sin(z):'f(z)'=f(z);
> z0:=-I:R:=3:C:=abs(z-z0)=R:
> Int(sin(z)/(z+I),z=C..")=2*Pi*I*f(I);

3-Misol. Quyidagi

$$\oint\limits_{|z+3|=4} \frac{\left(e^{z^2}+3z^4+4z^2\right)dz}{(z+2)^4}$$

integralni hisoblang.

Yechish. $a=-2$ nuqta $D=\{z\in\mathbb{C}:|z+3|<4\}$ doiraga yotgani uchun, $f(z)=e^{z^2}+3z^4+4z^2$ funksiya D doirada golomorf, demak bu $f(z)$ funksiya uchun (2) formulaga asosan berilgan doirada

$$\int\limits_{\partial D} \frac{f(z)}{(z-a)^{n+1}}dz=\frac{2\pi i}{n!}\cdot f^{(n)}(a)$$

formula o‘rinli. Berilgan misolda $n=3$ ekanligidan quyidagi munosabatni topamiz:

$$\oint\limits_{|z+3|=4} \frac{\left(e^{z^2}+3z^4+4z^2\right)dz}{(z+2)^4}=\frac{2\pi i}{3!}\cdot f'''(-2)=$$

$$=\frac{\pi i}{3}\cdot\left(12ze^{z^2}+8z^3e^{z^2}+72z\right)\Big|_{z=-2}=-\frac{(88e^4+144)\pi i}{3}$$

Maple dasturida yechilishi:

> z0:=-3:R:=4:abs(z-z0)=R;z:=x+y*I:
> with(plottools):with(plots):
> c:=implicitplot(abs(z-z0)=R,x=-7..7,y=-5..5,color=black,thickness=3):
> p0:=pointplot([Re(z0),Im(z0)],color=black,symbol=CIRCLE,symbolsize=26):
> p1:=pointplot([Re(z0),Im(z0)],color=black,symbol=CIRCLE,symbolsize=36):
> p2:=textplot([Re(z0)-3,Im(z0),"z0"],align=BELOW):
> p3:=pointplot([(-2),0],symbolsize=69,symbol=CIRCLE,color=red):
> display([c,p0,p1,p2,p3]);
> f:=z->exp(z^2)+3*z^4+4*z^2:‘f(z)‘=f(z);
> w:=z->diff(f(z),z$3):‘f”’(z)‘:=w(z);
> w:=z->12*z*exp(z^2)+8*z^3*exp(z^2)+72*z:‘w(z)‘=w(z);
> z0:=-3:R:=4:C:=abs(z-z0)=R:
> Int((exp(z^2)+3*z^4+4*z^2)/(z+2)^4,z=C..“)=2*Pi*I*w(-2)/3!;

Литература

1. **Шабат Б. В.** *Введение в комплексный анализ.* М. URSS, 2015.
2. **Худойберганов Г., Ворисов А. К., Мансуров Х. Т.** *Комплекс анализ.* Т. Университет, 1998.
3. **М.И. Шабунин, Ю.В. Сидоров.** *Теория функций комплексного переменного.* М. : Лаборатория знаний, 2016.

УДК 372.85

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Boltayeva Sh.O.
Termiz davlat universiteti; shboltayeva1221@gmail.com

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar talablariga to'la javob beruvchi, kelajakda o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'ya olgan, ishlab chiqarish sohasida raqobatga bardoshli, shuningdek, mehnat bozorida tanlagan kasbi malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat olib boruvchi shaxsni shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarining hissasi katta. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim- tarbiyaning maqsad va vazifalari tubdan o'zgardi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida aniq fanlarni, xususan, matematika fanini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu talablarni bajarish jarayonida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining real sharoitlarini qo'llab-quvvatlovchi tizimlar uchun bir qancha o'ziga xos talablar mavjud. Bu talablarni bajarish innovatsion ta'lim muhiti kabi bir xil maydonga ega. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv muhitining vazifalari ta'lim sohasiga oid vazifalariga mutanosib bo'lishi lozim. Shu sababli oliy ta'limda tabiiy, aniq va amaliy fanlar bilan ajralib turadi.

"Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi,"- deb bejiz ta'kidlamadilar muhtaram Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyev. Haqiqatan ham, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi mulohaza yuritishga chorlab, tafakkurni kengaytiradi.

Oliy ta'lim muassasalarining gumanitar fakultetlarida matematika o'qitish metodik tizimini takomillashtirishda mustaqil ta'lim jarayonlarini zamonaviy ilg'or xorijiy texnologiyalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun bu texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligining oshishiga, talabalarni intiluvchan, zamon bilan hamnafas kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda talim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqishga e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ananaviy talimda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Matematik tushunchalar mazmunini, qoidalarni va usullarni ongli o'zlashtirish orqali fikrlash madaniyatini egallash, axborotlarni tushunish, umumlashtirish va tahlil qilish, maqsadni qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlash; og'zaki va yozma nutqini asoslagan holda o'z fikrlarini mantiqan to'g'ri, aniq va ratsional ifodalash; matematikaning asosiy usullarini, jumladan matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini kasbiy faoliyatga qo'llash kompetensiyalariga erishishdir.

Shuning uchun o'quv yurtlari fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli katta. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh va ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, oʻqitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu oʻquv predmetining oʻziga xos texnologiyasi bor, ya'ni oʻquv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon boʻlib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yoʻnaltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Masofali oʻqitish kurslarining bir nechta texnologiyalari mavjud boʻlib, ularga kompleks "keys-texnologiyalar", korrespondentlik ta'limi, televizion va sun'iy yoʻldosh kanallari, mobil texnologiya, kompyuterli tarmoq texnologiyalari misol boʻla oladi. Tahlillarga koʻra, bugungi kunda keys texnologiyasi asosida oʻqitish birinchi oʻrinni egallab turibdi. Shuningdek, ta'lim tizimiga kompyuterli tarmoq texnologiyasi ham jadal kirib keldi.

Masofali oʻqitish kurslarining biz ta'kidlab oʻtgan ushbu turlarining har biri oʻzining yutuq va kamchiliklariga ega. Lekin ularning ichida kompyuterli tarmoq texnologiyalari asosida masofali oʻqitish tizimini tashkil etish oʻzining katta imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Uning negizi – Internet global tarmogʻi demakdir. Oʻquv jarayoniga internet va boshqa axborot texnologiyalari xizmatlaridan foydalanish, talabalar bilan sinxron yoki asinxron muloqotlarni tashkil etish borasidagi koʻnikmalarni shakllantirish talab etiladi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida auditoriyada va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishda internet tizimida topshiriqlarning berib borilishi, bajarilgan topshiriqlarni muntazam nazorat qilib borish oʻqituvchi va talabalarning mas'uliyatini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda talabalar bilimini baholashda shaffoflikka erishiladi. Talabalar ham mustaqil ta'lim jarayonida toʻplagan ballarini onlayn kuzatib boradi. Ayniqsa, hozirgi keskin rivojlanish davrida oʻqitishning bu turidan keng miqyosda samarali foydalanish lozim. Bu bilan talabalarning muntazam ravishda fan bilan shugʻullanishlari, boʻsh vaqtlarida ham ilm bilan mashgʻul boʻlishlariga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Boltayeva SH.O.** *Professialno-pedagogicheskaya napravlennost kursa matematiki dlya gumanitarnix fakultetov pedvuza.* "Gumanitarniy traktat" Nauchniy jurnal o gumanitarnix nukax. ISSN 2500-1159. Vipusk № 61, str. 52-59, Kemerovo 2019 god.
2. **Boltayeva SH.O.** *"Matematik ta'limni rivojlantirish va oʻqitish istiqbolining muhim masalalari"* Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 7 son, 3 jild, Toshkent -2020.
3. **Boltayeva SH.O.** *"Matematik kompetensiyalarni rivojlantirish"* SCIENCE AND INNOVATION xalqaro ilmiy jurnali //ISSN: 2181-3337. Toshkent, 2022. –№ 4. –B. 624-630.

Yuza va hajmni kattaligini saqlovchi akslantirishlar

Berdiyeva O. B.[1], Safarov T. N.[2]
[1]Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
oygul1974@umail.uz
[2] Termiz Davlat Universiteti; tolqin.1986@mail.ru

Bizga π tekislik va unda o'rnatilgan Oxy-affin koordinatalar sistemasi berilgan bo'lsin.

Ma'lumki

$$X' = AX + B, \quad A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{pmatrix} \quad B = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \end{pmatrix} \quad detA \neq 0$$

tekislikni o'zini o'ziga bir qiymatli akslantirish affin almashtirish deyiladi [1].

Agar A -ortogonal simmetrik matrisa bo'lib $detA = 1$ bo'lsa, almashtirish evklid tekisligida ikki nuqta orasidagi masofa soxa yuzasi, burchak kabi geometrik kattaliklar saqlanadi.

Bu aytilgan xossalar yuqori o'lchovli fazolar uchun ham o'rinli, Bunda A- matrisa ham mos o'lchovli kvadrat matrisa bo'lishi zarur.

Ushbu simmetriklik va ortogonallik shartlarini bajargan ikkinchi tartibli matrisani ko'raylik.

$$D = \begin{pmatrix} 1 & 0 \\ n & 1 \end{pmatrix} \quad detB = 1$$

Teorema 1. Matrisasi D bo'lgan affin almashtirishda ikki vektorning skalyar kupaytmasi va soxa yuzasi saqlanadi.

Tekislikdagi kabi uch o'lchovli fazoda

$$D_1 = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ a & cos\varphi & -sin\varphi \\ b & sin\varphi & cos\varphi \end{pmatrix} \quad D_2 = \begin{pmatrix} 1 & a & b \\ 0 & cos\varphi & -sin\varphi \\ 0 & sin\varphi & cos\varphi \end{pmatrix} \quad D_3 = \begin{pmatrix} cos\varphi & -sin\varphi & 0 \\ -sin\varphi & cos\varphi & 0 \\ a & b & 1 \end{pmatrix}$$

Teorema 2. Fazoda matrisalari D_i shaklida bo'lgan affin almashtirishda ikki vektorning skalyar ko'paytmasi, ikki vektorning vektor ko'paytmasining normasi va uch vektorning aralash kupaytmasi saqlanadi.

Adabiyotlar

1. **Ш.А. Аюпов, Б.А. Омиров, А.Х. Худойбердиев, Ф.Х. Хайдаров** *Алгебра ва сонлар назарияси, // Тафаккур-бўстони, Тошкент, (2019), 32-91 стр*,

2. **И. М. Яглом** *Принцип относительности галилеевой и неевклидовой геометрии.* , Наука, Москва, (1969). - 394 ст

UDK 51.1

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIM.

Berdiyeva O. B. [1], Nazarova G. Ch. [2]

[1]Surxondaryo viloyat XTXQTMOHM; oygul1974@umail.uz

[2] Termiz davlat universiteti. gulsinanazarova930@gmail.com

Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda. Jamiyatning, axborot muhitining va mehnat bozoridagi holatning jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta'lim tizimi davr talabiga javob bermay qoldi. Bu esa matematikani o'qitishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqilishini talab qilmoqda. Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban bilimimizni, ishimizni samarali va amaliyotga joriy etishda natijaviylikka e'tiborni qaratamiz. Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Jamiyatimiz oldida vujudga kelayotgan muammolarni hal etishga faol kirisha oladigan, sharoitni yaxshi tushunadigan, keng qamrovli fikrlaydigan, hayotda uchraydigan kundalik va kasbiy muammolarni tushunadigan, tahlil qila oladigan, taqqoslay oladigan, amaliy hal eta oladigan insonlarga bo'lgan talab qo'yilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, matematika fani insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. Demak, zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy xolatlarga chidamli, bu xolatlardan chiqa oladigan bo'lishi kerak.

Hamma bunday sifatlarni matematika ta'limida **kompetensiyaviy yondoshuvdan** foydalanish asosida erishish mumkin. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda **kompetensiyaviy yondoshuv** ta'lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o'qitish yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu davlatlardagi umumiy ta'limning yangicha mazmunining asosini o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi. Ta'limga kompetensiyaviy yondoshuv eskirib qolgan "bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtirish" konceptsiyasidan farqli o'laroq, kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi. Bundan tashqari, tuzilayotgan ta'lim standartlari o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari, turli kasb egalari bo'lishlari va har tomonlama faol fuqaro bo'lishlari uchun zarur bo'ladigan sifatlarni aks ettirishi kerak.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga matematikani o'rgatish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

"Matematik savodxonlik" o'quvchilarning maktab matematika kursida egallagan bilimlarini tekshirishni emas, balki turli vaziyatlarda matematik bilim, ko'nikmalarni qo'llay olishlariga asosiy e'tibor qaratiladi. O'quvchilarga, asosan, o'quv emas, balki kundalik hayotga xos bo'lgan amaliy vaziyatlar taklif etiladi (tibbiyot, uy-joy, sport va h.k.). Bunda o'quvchilar ko'p hollarda nafaqat matematikaning turli mavzulari va bo'limlaridan, balki boshqa fanlar, masalan, fizika va biologiyadan olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanishlari talab etiladi. Jamiyatning, axborot muhitining va mehnat bozorining jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta'lim tizimi davr talabiga javob bermay qoldi. Olinayotgan ma'lumotlarning keskin ko'payib borayotganligi sababli bu ma'lumotlarni qayta ishlab, undan foydalanish uchun yosh avlodga yetkazilishi kerak bo'lgan bilimlar ham taboro ortib bormoqda. Bugungi kun o'qituvchisi oldida dars soatlarini oshirmay turib, oldindan rejalashtirilgan bilimlar bilan bir qatorda eng yangi, oxirgi axborot va ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazib berishga ulgurish muammosi turibdi. Faqat bilim olishga yo'naltirilgan ta'lim o'tgan zamonda qolmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim bu - o'quvchi o'quv jarayonida egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo'llay olish nuqtai nazaridan beriladigan ta'limdir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limdan maqsad o'quvchini keng qamrovli fikr-mulohaza yuritadigan va muloqotga kirisha oladigan, ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo'llay oladigan barkamol shaxs qilib yetishtirishdir. Umumta'lim maktablari oldiga, bir tomondan, tevarak-atrofda sodir bo'layotgan jarayonlarni to'g'ri tushunadigan, ikkinchi tomondan, jamiyat hayotida faol ishtirok etib, o'z ijobiy ta'sirini o'tkaza oladigan har tomonlama ziyoli shaxsni tarbiyalash vazifasi qo'yilmoqda. Ma'lumki, matematik savodxonlik barcha fanlarni, ayniqsa aniq fanlarni o'zlashtirishda muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda matematika fanining ahamiyati beqiyosdir. Matematika - fan va texnika taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib, fan, madaniyat va kundalik hayotimizda alohida o'rin tutadi. Shuning uchun o'quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatida keng ko'lamdagi matematika bilan shug'ullanishlar bo'lishi kerak. Bunda: - matematikaga xos go'zallik va jozibadorlikdan foydalanib har bir o'quvchiga mos ravishda rivojlantiruvchi mantiqiy faoliyat bilan shug'ullanish; - jadval, diagramma, grafik ko'rinishda berilgan axborotlarni o'qiy olish, jadvallar tuzish, diagrammalar yasash, grafiklar chizish; - ommaviy axborot vositalarida berilayotgan diagramma, grafik ko'rinishdagi real sonli ma'lumotlarni tahlil etish ko'nikmalarini hosil qilish kerak bo'ladi. Fanlararo bog'lanishda amaldagi til bilan bog'lanish uchun spetsifik vosita bo'lgan matematika tilini o'qitish tamoyili ahamiyatga ega bo'ladi. Matematik savodxonlik va bu tildan unumli foydalana olish (gapning aniq mazmunini, gaplar orasidagi mantiqiy bog'lanishni bilish) fikrlashning aniqligi va tartibliligini ko'rsatadi. O'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi harakati natijasida nimaga erishilganiga emas, balki bu natijaga qaysi yo'l bilan erishilganiga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Bunda: - umumfan yo'nalishi darajasidagi o'qitish

- matematik standartning o‘rta maktab kursidagi bilimlarini egallash; - matematik yo‘nalishda - matematikani tabiiy fanlar bilan uyg‘unlashgan holda ixtisoslashgan kengaytirilgan fan yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish. Bu fanni o‘rganish insonning ilmga bo‘lgan qiziqishini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirib, boshqa fanlarning o‘qitilishiga ta’sir ko‘rsatadi va ta’limda asosiy vazifani o‘taydi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda namoyon bo‘ladigan matematik tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirish, matematik fikr yuritishga tayyor bo‘lish, masala va muammolarni yecha olish, matematik tilda bemalol ish yurita olish ko‘rinishidagi samarali natijalarni ta’lim usulini o‘zgartiribgina erishish mumkin. Bunda izlanuvchanlik asosiy o‘rin tutadi. Masalan, muammoli o‘qitishda o‘quvchilar nazariy va amaliy ko‘rinishdagi turli muammolarni yechish orqali yangi bilim va malakalarni egallaydi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, qiziqarli muammolarni qo‘yish va ularning yechilishiga yordam berish o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirib, bu fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada o‘quvchilar olgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalanishni o‘rganishadi va o‘zlarining ijodiy imkoniyatlari va aniq fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishadi. O‘qitishning zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga o‘tilishi ta’lim jarayoniga qor ko‘chkisi kabi ta’sir ko‘rsatadi va misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarga olib keladi. Bunda yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o‘qituvchisiining vazifasiga aylanadi. Bilimli, yuqori malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlargina jamiyatning ta’lim oldiga qo‘ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo‘ladilar. O‘qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o‘z-o‘zini tarbiyalashi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirishi va ularni ta’lim jarayonida qo‘llashi ta’lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish esa ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Matematika darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o‘qituvchiga mavzuning to‘liq o‘zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning o‘zlari faol ishtirok etishlarini ham ta‘minlaydi. Bu esa matematika fanini o‘qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo‘lib xizmat qiladi. O‘qitishga qo‘yilgan maqsad va rejalashtirilgan natijalarni, asosan, didaktik texnologiyalarning to‘g‘ri tanlanishi, o‘quv jarayonini va o‘quv faoliyatini uyushtirish usullarini mulohaza qilib tanlanganligini ta‘minlaydi. Ta‘lim jarayoning qiziqarli bo‘lishi turli didaktik tizimlar majmuining qanday tanlanishiga bog‘liq

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Mirziyoyev Sh. M.** *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - Toshkent : O‘zbekiston.
2. *Matematika fanidan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari.* VMning 2017 yil 6 aprel 187-sonli qarori.
3. **Urazova M.B., Eshpulatov SH. N.** *Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati* Metodik qo‘llanma. - T.: TDPU Rizografi, 2014 yil. 6,5 b.t.
4. **Mirzahmedov M. A., Raximqoriev A. A.** *Matematika 6-sinf.* “O‘zbekiston Davlat entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti – 2015 yil.
5. **Alimov Sh., Xolmuxammedov O., Mirzaahmedov M.** *Algebra 7-sinf* . “O‘qituvchi” nashriyoti - 2009 yil.

UDK 51.001.891

Nufuzli xalqaro tadqiqotlarning afzalliklari.

Berdiyeva O.B. [1], Raxmatova F.J. [2]
[1]Surxondaryo viloyat XTXQTMOHM; oygul1974@umail.uz
[2]Termiz davlat universiteti; feruzaraxmatova122@gmail.com

XXI asr - informatsion texnologiyalar asri. Bu asr o‘z mutaxassislaridan oldingidan ancha farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. Hozirda ayni mana shu layoqat, qobiliyat (kompetentlik)ga ega yoshlarni tarbiyalash davr talabidir. Shu qatori, so‘nggi paytlarda maktablarda matematika fani bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishi nisbatan past bo‘lib kelmoqda. Bu qaysidir ma’noda matematika fani mazmunining birmuncha nazariy, ilmiy, mantiqiy va aksiomatik tuzilishga ega ekanligi bilan bog‘liq. Buni matematika fani mazmunining hayotiy masalalarga kamroq bog’langan holda o‘qitilishi hamda matematika fanini o‘qitish metodikasining takomillashmagani bilan ham izohlash mumkin. Shulardan kelib chiqib, matematika fanini o‘qitishga ham zamonaviy talablar qo‘yilmoqda va uni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

PISA tadqiqotlarida darsliklarimizdagi odatiy matematik misol yoki masala emas, balki biror kontekstda taqdim qilingan real hayotiy muammoli vaziyatlar beriladi. SHunday ekan darslikdarimizdan o‘rin olgan odatdagi standart masalada berilgan ma’lum miqdorlar va topish kerak bo‘lgan noma’lum miqdorlar bo‘ladi. Noma’lumni berilgan ma’lumlardan foydalanib topish talab qilinadi. Bunda berilganlar noma’lumni topish uchun yetarli bo‘lib, ular kam ham bo‘lmaydi, ko‘p ham bo‘lmaydi.

PISA topshiriqlari esa matematik masala emas, u matematik masaladan oldin keluvchi bosqich - muammoli vaziyatning tavsifidan iborat. Topshiriq tavsifiida tasvirlangan muammoli vaziyatni mulohaza yuritish orqali o‘rganib, uni matematik tilga o‘girib ifodalash, ya’ni matematik masalaga keltirish kerak bo‘ladi. SHundan keyin masalani matematikani qo‘llab yechishga keltiriladi.

Bunday tadbirlarga bugun biz o‘quvchilarni tayyorlashimiz uchun avvalo o‘qitayotgan fanimizning hayot uchun zarurligini, tevarak-atrofimizdagi voqea, xodisalar aynan matematika fani bilan bog‘liqligini tushuntira olsak, ko‘zlagan maqsadimizga erisha olamiz.

Maktablarda matematika o‘qitishni turmush bilan bog‘lashda o‘quvchilarning tafakkur va tasavvurlarining rivojlangan bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Bu vazifani amalga oshirishda geometriya fanining o‘qitilishi ayniqsa katta o‘rin tutadi.

O‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini yetarli darajada rivojlantirish uchun ba’zi darslarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilar tekislikdagi figuralarni fazoda olib ko‘ra biladigan bo‘lsinlar. Masalan: o‘qituvchi odatda o‘quvchilarga siniq chiziq haqida tushuncha berayotganida uning ta’rifini berib, doskada siniq chiziqni chizib ko‘rsatish bilan chegaralanadi, xolos. Siniq chiziqning faqat tekislikdagina emas, balki uning fazoda ham turli vaziyatda bo‘lishini ko‘rsatish mumkin. Eng qulayi 3-4 dona tayoqcha olib, bir to‘g‘ri chiziqda va bir tekislikda yotmaydigan qilib ketma-ket ulab ko‘rsatish yoki parallelepiped modelida kesmalarni ifodalovchi ketma-ket qirralarni siniq chiziqqa misol qilib ko‘rsatilsa bo‘ladi. Bunday misollarni turmushdan juda ko‘plab keltirish mumkin.

Umumta‘lim maktablarida geometriya o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini o‘stirish hamda tasavvur qilinadigan fazoviy obyektlar ustida turli ishlar bajara olishni o‘rgatishdir. Maktabni tamomlagandan keyin, o‘z hayotini xalq xo‘jaligi yoki biror texnikaviy kasbga bag‘ishlaydigan o‘quvchilar uchun bu narsa, ayniqsa muhim. Maktablar bu muhim vazifani doimo muvaffaqiyat bilan bajarmoqda deb bo‘lmaydi. Maktabni tamomlagan ba’zi o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlari juda bo‘sh ekanligi to‘g‘risida aniq faktlar mavjud. Ular, ko‘pgina geometrik jismlarning sirtlarini va hajmlarini tayyor formulalardan foydalanib hisoblay oladilar: ammo, ko‘pincha, fozoviy geometrik shakllarning, xatto ular orasidagi eng oddiy munosabatlarni aniqlash lozim bo‘lganda ham, o‘quvchilar buning uddasidan chiqa olmaydilar. Bu narsa ular uchun og‘ir, juda qiyin, ba’zan butunlay tushunilmaydigandek tuyuladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS, yani dastur quyidagilarni nazarda tutadi:

- o‘quvchilarning mantiqiy va matematik tafakkurini rivojlantirish;
- matematik masalalar yechishning umumiy usullarini o‘rgatish;
- o‘quvchilarning fazoviy, abstrakt tasavvularini kengaytirish va rivojlantirish;
- o‘quvchilarning kelgusi ta‘lim bosqichlarida matematika o‘rganishini davom ettirishlari uchun yetarli zamin yaratish, pirovard natijada ta’limning uzluksizligini ta’minlash.

O‘quvchida tafakkur va tasavvurni o‘stirish orqali quyidagi kompetenlikni shakllantirish ko‘zda tutiladi:

- oʻquvchilarning matematik savodxonlik holati;
- tanlangan mazmun sohasining materiallariga ega boʻlishi;
- matematik modellashtirish, mantiqiy fikrlash, umumlashtirish va intuitsiya;
- fazoviy tasavvurning paydo boʻlishi va rivojlanishi, geometriyaning sodda tushunchalari va elementar shakllarni tasavvur etishi;
- ilmiylikdan koʻra bu tushunchalarni amaliy tomonga, ya'ni "mana bunday yasash mumkin", "koʻrinib turibdiki" kabi tushunchalariga tayanish;
- shakllarni geometriya fanining amaliy va kundalik masalalarni hal qilishga tadbiq etish;
- raqamli texnologiya asosida yaratilgan dasturiy vositalar bilan muloqotning osonlashishi;
- oʻquvchilarda matematikaga boʻlgan qiziqishini orttirish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun taʻlim jarayonida amaliy va nostandart xarakterdagi masalalardan foydalanish;
- masalalarni yechilishi oʻquvchilarda natijaga erishilganlik, yechim yoʻlining goʻzalligi va noanʻanaviyligi bilan bogʻliq boʻlgan ruhiy koʻtarinkilik bagʻishlashi muhim ahamiyatga ega.

Matematika fani, jumladan geometriya fani orqali oʻquvchilarning tafakkur va tasavvurini rivojlantirishda fan mutaxasislarida quyidagi kompetenlik shakllangan boʻlishi lozim:

-oʻquvchilarning ijodiy faoliyatini tarbiyalash, mustaqil ishlash malakasini hosil qilishga yordam beruvchi vosita va metodlardan toʻgʻri foydalanishni bilishi;

-fanni oʻzlashtirish uchun tayyor bilimlarni bermasdan, balki fikrlashga undovchi muammoli vaziyatlarni yarata olishi;

-geometriyaning turli mavzularini oʻrganishda doimo aniq misollar orqali koʻrsatmalilikdan foydalanishni bilishi;

-matematikaning boshqa fanlardan farqli goʻzal jihatlarini mavzuga kirishdan oldin topishga va ochishga oʻquvchining tafakkuri orqali tasavvurini shakllanishiga erishishi;

-oʻquvchilar oʻqituvchining oʻz fani, shu darsining mavzusi bilan astoydil shugullanayotganini sezdirishi va oʻziga ergashtira olishni bilishi;

-darsda e'tiborsizlar va zerikuvchilar boʻlmasligi, matematikani "quruq va qiziqarlimas" (koʻplarga shunday tuyuladi) fandan qiziqarli va jozibali fanga aylantirish uchun har bir darsni turli xil metodlardan fodalanib tashkil eta olishni bilishi;

-mavzuni amaliyot, hayot bilan bogʻlash, koʻplab misollarni tevarak-atrofdan izlab topish va uni oʻquvchining oʻzi yechishiga erishishi uchun yoʻnaltiruvchi savollarni qoʻya bilishi lozim.

Geometriya tavakkur va tasavvurni rivojlantirib, aqlni tartibga soladi. Uning amaliy tadbid qilinish sohasi juda katta. Siz qaysi fanni oʻrganmang, qaysi oliy oʻquv yurtiga kirmang, qaysi sohada ishlamang, agar siz oʻsha yerda iz qoldirishni istasangiz, hamma vaqt geometriya fanini bilishingiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Mirziyoyev Sh. M.** *Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutq. - Toshkent : Oʻzbekiston, 2016. - 56 b.

2. *"Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish chora tadbirlari toʻgʻrisida"gi.* Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli Qarori.

3. *3. Xalqaro tadqiqotlarda oʻquvchilarning matematik savodxonligini baholash (matematika oʻqituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qoʻllanma).* Ta'lim inspektsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. - Toshkent.2019-y.112 bet.

4. *Matematika fanidan uzviylashtirilgan oʻquv dasturi, taqvi-mavzu reja (5-6-7-8-9-sinflar).* Toshkent -2010 yil.

5. *5. Matematika fanidan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari.* VMning 2017 yil 6 aprel 187-sonli qarori.

УДК: 510.75

O'QUVCHILARNI NOSTANDART MASALALAR ORQALI IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

D. Sh. Djurayeva.[1], A.S.Tojiboyeva.[2]
[1] Termiz davlat universiteti; dilnozajuraeva@mail.ru,
[2] Angor tuman 1-son kasb-hunar maktabi; e-mail:atojiboyeva@mail.ru

Bugungi kunga kelib ilm-fan, texnika taraqqiyoti juda tezkorlik bilan rivojlanib borayotganligi ham xech kimga sir emas. Ayniqsa, turli axborotlar soni keskin ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunday axborotlardan, yangilik va o'zgarishlardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri va unumli foydalanish bugungi kun o'qituvchisidan ilmiy salohiyat, malaka va yuqori darajada pedagogik mahoratni talab etmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy ilmiy-texnikaviy ilm va bilimga, tushunchaga ega o'quvchilarni tarbiyalash, sifatli ta'limni ta'minlash, yoshlarni har jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazishning ilk saboqlarini berish hamda bolalarning dunyoqarashini to'g'ri shakllantirish masalasi maktabgacha ta'lim muassasalari hamda maktablar zimmasiga yuklatilgan.

Ko'plab ilmiy izlanishlarda masalani, jumladan, nostandart masalani ham, yechishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Masalan, tadqiqotchi olima N.A. Menchinskaya izlanishlarida masalalarni yechishda fikrlash jarayoni fazalari, ya'ni davrlari, Z.I Kalmikova, Y.N. Kulyutkin, A.F. Esaulov va boshqalarning ilmiy ishlarida esa aqliy faoliyat paytida qabul qilishning umumlashma holatidagi maqbul ko'rinishlari alohida ajratib ko'rsatilgan.

Olib borilgan psixologik-pedagogik va uslubiy izlanishlar, qolaversa, o'zimiz olib borgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pchilik holatlarda o'quvchilar nostandart masalalarni yechish paytida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar va uni yechishni rad etadilar, ya'ni istamaydilar. Chunki o'quvchilar turli masalalarni yechishning ma'lum bir taktika va strategiyasi bilan yetarlicha tanish emasligi tufayli ba'zi bir harakatlar dasturini ishlab chiqishda, xususan, olingan natijalarni umumlashtirishda, boshlang'ich harakatlarini baholash hamda nazorat qilishda ikkilanib qoladilar.

Y.M. Kolyagin matematik masalada quyidagi tarkibiy qismlar bo'lishini alohida ta'kidlaydi:
—boshlang'ich holat (masala sharti);
—yakuniy holat (masalaning xulosasi);
—yechim (izlanayotgan narsani topish shartini qayta tuzish);
—yechimning ustqurmasi (nazariy asoslanishi).

Shu nuqtai nazarga asoslangan Y. Kolyagin barcha boshlang'ich holatdan, to yakuniy holatgacha, matematik vositalar bilan hal etiladigan masalalarni "matematik masala"deb tushuntiradi. Muallif bu guruhdagi masalalar sirasiga tarkibiy qismlari matematik ob'yektlar hisoblanadigan hamda matematik apparatlar yordamida yechiladigan amaliy matematikaga oid barcha masalalarni ham, sof matematik masalalarni ham birdek kiritadi.

F.F. Nagibin va YE.S. Kaninning "Matematik quticha"kitobida esa quyidagi masala turlarini ko'rish mumkin:
—"oxiridan"yechiladigan masalalar;
—"qo'yish"asosida yechiladigan masalalar;
—foizlar asosida yechiladigan masalalar;
—tiklash asosida yechiladigan masalalar.

Masalalarni yechishga o'rgatishda o'qituvchi oldida ikki xil ma'noga ega masala turadi. Bir tomondan, masala shartlarida aks etgan bilimlar tizimini tiklash va saqlab qolish zarur. Ikkinchi tomondan esa o'quvchilar bu bilimlardan voz kechishlari va nisbatan yangi tizimni "doimiy ravishda ochila boradigan masala talablari"ga bog'liq bo'lgan yangi tizimni qurishlariga erishish kerak. Misol tariqasida quyidagi masalani ko'rib chiqamiz:

Masala 1. Quyidagi tenglamalar hamisha ham noto‘g‘rimi?

$$\lg(a+b)=\lg a+\lg b$$

Yechim: Ma’lumki, $\lg(ab)=\lg(a+\lg b)$. Agar qandaydir b to‘g‘ri bo‘lsa, $\lg(a+b)=\lg a+\lg b$, unda $\lg(a+b)=\lg(ab)$ bo‘lsa, $a+b=ab$ qayerdan keldi?

Binobarin $b=\frac{a}{a-1}$. Shu tariqa, $\lg(a+b)=\lg a+\lg b$ tenglik har qanday ijobiy ahamiyatli ma’no uchun to‘g‘ri, o‘zaro tenglik bilan bog‘langan b esa: $b=\frac{a}{a-1}$.

Masalan:

1. $a=2; b=2;$
2. $a=3; b=\frac{3}{2},$
3. $a=1,5; b=3.$

Bunday juftlar cheksiz darajada ko‘p, ko‘rib chiqilayotgan tenglikda a va b ahamiyatli ekanligi bois, bu tenglik to‘g‘ri, ya’ni 1 dan yuqori. Ta’kidlash zarurki, "aniq mahsuldor faoliyat (uning yuksak darajasi-ijodiylik), atrof-muhit voqeligini mustaqil anglash-fikrlash faoliyatining to‘qima va sermahsul ko‘rinishlarining o‘zaro bog‘liqligi natijasidir"([1], [2] q.). Lekin, unutmaslik kerakki, aynan"mahsuldor fikrlash o‘z mahsulotining yuqori darajadagi yangiligi bilan izohlanadi. Ya’ni, yangi bilimlar sari aniq yo‘l ochadi [2]. N.A. Menchinskiyning e’tirof etishicha, avvallari o‘zlarida fikrlashning zaif egiluvchanligini namoyon etgan va qisman, esida qolganlar asosida masala-muammoni mahsuldor yondoshishning o‘ziga xosliklarini namoyon etgan holda o‘zgartirib yuborishga qodir bo‘ladilar". Bunday natijaga erishish uchun yechilayotgan masaladagi qiyinchiliklarni (murakkabliklarni) kamaytirish yoki ularni o‘yin va amaliy mashg‘ulotga aylantirish tavsiya etiladi.

Shunisi ham borki, nostandart masalalarni yechish o‘ziga xos matematik fikrlashni shakl-lantira boradi. A.Y.Xinin bunday fikrlashning quyidagi o‘ziga xos belgilarini alohida ajratib ko‘rsatadi:

1)Mantiqiy fikrlashning ustun darajada oxiriga yetkazilishi matematikaga xos xususiyat hisoblanadi.

2)Lo‘nda, ya’ni maqsadga eltuvchi eng maqbul va yaqin mantiqiy yo‘lni izlash, benuqson dalil-isbotlar topishga xalaqit beradigan hamma ortiqcha narsani ayovsiz olib tashlash.

3)Dalillar keltirishda aniq bo‘linishlarni topish.

4)Ramzlarning puxta darajada aniq bo‘lishi.

Masalani dars paytida butun sinf bilan birgalikda o‘rganish va yechish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yechim g‘oyasini jamoa bo‘lib izlash va topish bolalarda shaxsiy sifatning tashabbuskorlik qobiliyatini shakllantira boradi. Matematik masalalar o‘quvchilarga o‘z harakatlarini nazorat qilish ko‘nikmasini shakllantirish, yechimning borishini prognoz qilish, o‘z ishini tanqidiy baholashda har jihatdan ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хинчин А.Й. *Педагогические стати* под ред.Б.В.Гнеденко.-М:.изд-во "Барс 1977-392 стр.

2. Abdullayeva B.S. *Akademik litsey talabalarining matematik tafakkurini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida)*: Dis... ped.fan.nom.-T., 2002. -41 b.

3. Abdullayeva B.S., Djurayeva D.SH., Djurakulova A.X. *Matematika o‘qitish metodikasi.* O‘quv qo‘llanma. Toshkent: "TURON-IQBOL 2020. -220 b.

4. Akramova A.S. *Система дифференцированних домашных заданий по математике как средства активизатции познавательной деятельности младшых школников.:* Автореф. дисс.... канд. пед. наук. -Алма-ати.: 1996. -19 b.

УДК 371:38.014

ALGEBRANING MAXSUS YO'L BILAN YECHILADIGAN MASALALARINING AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Eshkeldiyev S.[1],
[1]Termiz davlat universiteti; eshkeldiyevsalohiddin@gmail.com1

Bugungi kunda matematikani o'qitish jarayonini samarali amalga oshirish va o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri ekanligi barchaga ma'lum. Shuning uchun ham o'quvchilarning qobiliyatlarini shu jumladan, matematik qobiliyatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan va turli usullar taklif qilingan. Aytish joizki aynan matematik qobiliyatlarni rivojlantirish usullari yoritilgan ilmiy izlanishlar nihoyatda kam. Bizning bu boradagi izlanishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki taklif qilingan usullar ichida eng samaralisi matematik qobiliyatni aniqlovchi komponentlarni o'rganish va ularni rivojlantiruvchi masalalarni tuzishdir.

Akademik litseylarda ta'lim olayotgan qobiliyatli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash va ularning noyob iste'dodini ruyobga chiqarish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etish zarurati paydo bo'ldi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kayd etilganidek: Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda qobiliyatli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Yuqorida aytib o'tilgan ishlarda qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash, o'qitish va ularning qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ma'lum ilmiy va amaliy natijalar olingan. Biroq, bunday o'quvchilar bilan ishlash jarayonida qobiliyat turlarining rang-barangligi, bir-biriga zid yondashuvlar, shuningdek qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislarning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha pedagogik va psixologik muammolar haligacha to'liq o'zining yechimini topmagan. Bundan tashqari qobiliyatli o'quvchilarni o'qitish va ulardagi mavjud qobiliyatni rivojlantirish metodikasini ishlab chikishda ta'lim turlarini va xar bir o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi.

Har qanday faoliayat insondan bir qobiliyat emas, balki bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta qobiliyat bo'lishini talab qiladi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlanadiki, biron-bir xususiy qobiliyatning yetishmasligi, sust rivojlanishi boshqa, kuchli rivojlanayotgan qobiliyatlar hisobidan qoplanishi mumkin va hokazo. Qobiliyatlarning bunday qoplanish xususiyati turli faoliyat turlarini egallash, kasb tanlash uchun juda keng imkoniyatlar beradi. Ushbu tushuntirishlar orqali o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini algebraning maxsus yo'l bilan yechiladigan masalalaridan foydalanib teskarilanuvchan matematik fikrlash komponentiga doir masalalarni qaraymiz.

Teskarilanuvchan matematik fikrlash (mulohazalar ketma-ketligida to'g'ridan teskariga qarab o'ta olish qobiliyati). Bu qobiliyat turi matematik fikrlar ketma-ketligini tartiblash va kezi kelganda ulardan teskarisiga foydalanishdir. Mulohazaga olib keluvchi shartlar ketma-ketligini inkor ma'nosida qabul qilish fikri hisoblanadi.

Misol. Tenglikni isbotlang.

$$\sqrt{2022} = 1 + \cfrac{2021}{2 + \cfrac{2021}{2 + \cfrac{2021}{\ddots}}}$$

Yechilishi. Ushbu tenglamani isbotlash uchun o'quvchi teskarilanuvchan matematik fikrlash qobiliyati orqali $\sqrt{a} - 1 = \frac{a-1}{\sqrt{a}+1}$ tenglikdan foydalanib yechadi.

$\sqrt{a} - 1 = \frac{a-1}{\sqrt{a}+1}$ ifodani berilgan tenglikga o'xshatish uchun quyidagi ko'rinishga keltirib oladi $\sqrt{a} = 1 + \frac{a-1}{\sqrt{a}+1}$.

Va $\sqrt{a}+1$ ni $2+\frac{a-1}{\sqrt{a}+1}$ formulaga teskarilanuvchan matematik fikrlash qobiliyati orqali keltirib oladi $\sqrt{a}=1+\frac{a-1}{2+\frac{a-1}{\sqrt{a}+1}}$

Natijada tenglamani quyidagi ko'rinishda isbotlaydi.

$$\sqrt{a}=1+\frac{a-1}{2+\frac{a-1}{2+\frac{a-1}{\sqrt{a}+1}}}\sqrt{a}=1+\frac{a-1}{2+\frac{a-1}{2+\frac{a-1}{\ddots}}}$$

Teskarilanuvchan matematik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun mantiqiy ko'rinishdagi masalalar, ayniyatni va quyidagi isbotlash ko'rinishdagi masalalarni qo'llash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. **Guilford J. P.** *Three Faces of Intellect , Psychology and Education of the Gifted.* Ed. by Barbe W.B. and Renzulli J.S.-N.V., 1981. P. 87-102.
2. **Рензулли Дж., Рис С.М.** *Модель обогащающего школьного обучения. Основные современные концепции творчества и одаренности.* Под ред. Д.Б. Богоявленской. - М., 1997. - С. 214-242.
3. **Mirzaahmedov M.A., Sotiboldiyev D.** *O'quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash.* Toshkent: O'qituvchi, 1996. - 420 b.
3. **Ibragimov N.Sh.** *Talaba va o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqida.* СамДУ Илмий ахборотномаси. - Самарканд: СамДУ, -2018. 1-сон. -Б.177-182.

UDK 51.001.891

O'quvchilarga matematik amallarni o'rgatishda qiziqarli masalalar roli.

Eshmo'minova D.
Termiz tumani 12-IDUM; dilbareshmominova@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizom va umumiy o'rta ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartlarining qabul qilinishi vujudga kelgan yangi ijtimoiy vaziyat va sharoitlardan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta ta'limning maqsadi, mazmuni va vazifalarini oydinlashtirib berdi.

Maktabda o'quvchilarga matematikani o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlar belgilandi. O'quvchilarda har bir fan yuzasidan puxta bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish,darslarda ijodiy muhitni yaratish uchun avvalo o'quvchilarning bilimidagi yetishmovchilik, kamchiliklarni aniqlash lozim. O'quvchilar bilimida uchraydigan yetishmovchiliklar, dastur hajmida to'liq va mustahkam bilimga ega bo'lmaslik, u yoki bu mavzuni o'zlashtira olmaslik tasodifiy hol emas, albatta, buning turlicha sabablari bo'ladi.

Maktab hayotida ana shu sabablarni to'g'ri aniqlay bilish, chuqur tahlil qilish, o'quvchilarning fanlar bo'yicha chuqur bilim ko'nikma va malakalarni egallashiga putur yetkazuvchi omillar, eng muhimi ularni bartaraf qilishning usullarini izlab topish va amalda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki ta'lim–tarbiya berishning asosi-darsdir. Puxta tayyorgarlik va reja asosida tashkil etilgan qiziqarli, ko'rgazmali va boy mazmunli dars samarali natija beradi. Afsuski, ba'zan darsni tashkil etish va uni o'tkazishda ayrim hollarda yuzakilik, shoshma-shosharlik, e'tiborsizlik noizchillik hollari ham uchrab turadi.

Umumta'lim maktabning muxim vazifasi keng ma'lumotli, har tomonlama rivojlangan kishilar tayyorlashdan, o'quvchilarni o'quv rejadagi har bir fanga oid chuqur va puxta bilan qurollantirishdan, ular bilimlarini izchil amalga oshirishga intilishi va bu bilimlarini mustaqil to'ldira borish, ularni amalda qo'llay olish malakasini tarbiyalashdan iborat.

Sinfdan tashqi ishning asosiy maqsadi o'quvchilardan fanga qiziqishni rivojlantirish, asosiy kursda olinadigan bilimlarni to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik fakt va ma'lumotlar, malaka va ko'nikmalar zapaini to'plashdan iborat.

Matematikadan sinfdan tashqi o‘tkaziladigan ishlar deyilganda o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligida darsdan tashqi paytdagi sistemali mashg‘ulotlari tushuniladi.

Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir biridan farq qilish lozim. Uning birinchi programma materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi, ikkinchi matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar.

Odatda sinfdan tashqi ishlar deyilganda ko‘proq ikkinchi turdagi ishlar nazardla tutadigan va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:
1. O‘quvchilarda matematika va uning tadbiqlariga qiziqish.
2. O‘quvchilarning matematikadan programma bo‘yicha bilimlarini kengaytirish.
3. O‘quvchilarda ilmiy tekshirish xarakteridagi malakalarini hosil qilish.
4. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash.
5. O‘quvchilarni matematikadan ilmiy - ommabop adabiyot bilan ishlashga o‘rgatish.
6. O‘quvchilarning matematikaning tarixiy - ilmiy ximmati haqidagi, o‘zbek matematika maktabining dunyo fani oraida yetakchilik roli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Bu maqsadlarning bir qismi dars paytida amalga oshiriladi, ammo dars vaqti chegaralanganligidan uning anchagina qismini sinfdan tashqi muloqatlarda amalga oshirishga to‘g‘ri keladi.

Matematikadan sinfdan tashqi ishlarning formalari quyidagilar:
- matematika to‘garaklari;
- matematika viktorinalari;
- konkurs va olimpiadalar;
- matematika kechalari;
- matematik eskursiyalar;
- matematik insholar;
- maktab matematika matbuoti va x.k.

Umumiy ta’lim maktablari sinfdan tashqi ishlar borasida ajoyib tajribalar to‘plagan. Matematika o‘qituvchilari bu faoliyat tashabbuskorlarining oldingi sifati turadilar. O‘quvchilar bilan turli formadagi qo‘shimcha matematik mashg‘ulotlar o‘tkazilishi yosh matematiklar maktablarining paydo bo‘lishiga, shuningdek o‘rta maktablarda fakultativ kurslar joriy etilishiga olib keladi. Biroq fakultativ mashgulotlarining joriy etilishi maktabda matematikadan o‘tkaziladigan sinfdan tashqi ishlarning roli va ahamiyati pasaytirmaydi, aksincha matematika o‘qituvchisi uchun o‘quuvchilarning matematik faoliyatlarini yanada rivojlantiradigan matematika faniga qiziqishlarini kuchaytiradigan ajoyib imkoniyatlar yaratib beradi. Matematikadan sinfdan tashqi ishlar o‘quvchilarni bilimlarini chuqurlashtirishga, ilmiy qiziquvchanliklarini o‘stirishga, bilim darajalarini oshirishga va tarbiyaviy harakterdagi masalalarni hal qilishga qaratiladi.

ARIFMETIKAGA YORDAM

Oniy ko‘paytirish

Mohir hisoblovchilar ko‘p holatlarda o‘zlariga hisoblash ishlarini murakkab bo‘lmagan argebraik o‘zgartirishlardan foydalanib yengillashtiriladilar. Masalan, 988^2 ning hisoblanishi quyidagicha bajariladi:

$$988 \cdot 988 = (988 + 120) \cdot (988 - 12) + 12^2 = 1000 \cdot 976 + 144 = 976144$$

Osongiga fahmlash mumkinki, hisoblovchi bu holda quyidagi algebraik o‘zgartirishlardan foydalanadi:

$$a^2 = a^2 - b^2 + b^2 = (a + b) \cdot (a - b) + b^2.$$

Amaliyotda biz bu formuladan og‘zaki hisoblashlarda muvoffaqiyat bilan foylanishimiz mumkin.

Masalan:

$$27^2 = (27 + 3) \cdot (27 - 3) + 3^2 = 729$$

$$18^2 = 20 \cdot 16 + 2^2 = 324$$

$$48^2 = 50 \cdot 46 + 2^2 = 2304$$

$$54^2 = 58 \cdot 50 + 4^2 = 2916$$

Har qanday 76 bilan tugallanuvchi ikki sonning ko'paytmasi 76 bilan tugallaydigan sonni beradi.

Isbot. Bunga o'xshash sonlarning umumiy ifodasi quyidagicha: $100a + 76,\ 110b + 76$ va h.k.

Shu ko'rinishdagi ikki sonni ko'paytiramiz:

$$10000ab + 7600b + 7600a + 5776 = 10000ab + 7600b + 7600a + 5700 + 76 =$$

$$= 100(100ab + 76b + 76a + 57) + 76$$

ifodani hosil qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Mirziyoyev Sh. M.** *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - Toshkent : O'zbekiston.
2. *Matematika fanidan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari.* VMning 2017 yil 6 aprel 187-sonli qarori.
3. **Urazova M.B., Eshpulatov SH. N.** *Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati* Metodik qo'llanma. - T.: TDPU Rizografi, 2014 yil. 6,5 b.t.
4. **Mirzahmedov M. A., Raximqoriev A. A.** *Matematika 6-sinf.* "O'zbekiston Davlat entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti – 2015 yil.
5. **Alimov Sh., Xolmuxammedov O., Mirzaahmedov M.** *Algebra 7-sinf* . "O'qituvchi" nashriyoti - 2009 yil.

УДК 517.28

Tenglamasi parametrik shakldа berilgan funksiyani hosila yordamida tekshirib grafigini chizish.

Islomov B.
Termiz davlat universiteti; bobur1991islomov@gmail.com1

Tenglamasi

$$\begin{cases} x = \varphi(t), \\ y = \tau(t), \end{cases} \alpha \le t \le \beta \tag{1}$$

parametrik ko'rinishda berilgan funksiyani qaraymiz.

Parametrik ko'rinishda berilgan funksiyani hosila yordamida tekshirib grafigini chizishda kerak bo'ladigan ba'zi bir tushunchalarni keltiramiz.

1.*Egri chiziqning o'qlarga nisbatan simmetrikligi.*

a) Agar $\varphi(t)$ juft, $\tau(t)$ toq funksiyalar bo'lsa, u holda egri chiziq Ox o'qiga nisbatan simmetrik bo'ladi.

b) Agar $\varphi(t)$ toq, $\tau(t)$ juft funksiyalar bo'lsa, u holda egri chiziq Oy o'qiga nisbatan simmetrik bo'ladi.

c) Agar $\varphi(t)$ va $\tau(t)$ funksiyalar toq funksiyalar bo'lsa, u holda egri chiziq koordinata boshiga o'qiga nisbatan simmetrik bo'ladi.

Bu shartlar yetarli shartlardir, lekin zaruriy shart emas.

2.*Egri chiziqning koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari.*

a)t ning $\tau(t)=0$ tenglikni qanoatlantiruvchi qiymatlari berilgan egri chiziqning absissa o'qi bilan kesishish nuqtalarini aniqlab beradi.

b)t ning $\varphi(t)=0$ tenglikni qanoatlantiruvchi qiymatlari berilgan egri chiziqning ordinata o'qi bilan kesishish nuqtalarini aniqlab beradi.

3.*egri chiziqning maxsus nuqtasi tushunchasi.*

$$\begin{cases} x=\varphi(t), \\ y=\tau(t), \end{cases} \alpha \le t \le \beta$$

parametrik ko'rinishda berilgan egri chiziqning $(x_0;y_0)$ nuqtasi maxsus nuqta deyiladi, agar $t=t_0$ da (bu yerda $t_0 \in [\alpha;\beta]$)

$$x_0=\varphi(t_0), y_0=\tau(t_0),\ \varphi'(t_0)=\tau'(t_0)=0 \tag{2}$$

tengliklar o'rinli bo'lsa. Egri chiziqning maxsus nuqtalaridan boshqa barcha nuqtalari (t ning $\varphi'(t), \tau'(t)$ lardan hech bo'lmaganda birortasini nolga aylantirmaydigan qiymatlariga mos kelgan nuqtalarni) oddiy deyiladi.

Har qanday maxsus nuqta bo'lmagan oddiy $M_0(x_0;y_0)$ nuqtadan o'tkazilgan urunma chiziq tenglamasi

$$y-y_0=\frac{\tau'(t_0)}{\varphi'(t_0)}(x-x_0), \varphi'(t_0)\neq 0 \tag{3}$$

yoki

$$x-x_0=\frac{\varphi'(t_0)}{\tau'(t_0)}(y-y_0), \tau'(t_0)\neq 0 \tag{4}$$

ko'rinishda bo'ladi.

4.*Egri chiziq urunmasining koordinata o'qlariga parallel bo'lish shartlari.*

a) Egri chiziqqa o'tkazilgan urinma Ox o'qiga parallel bo'lishi uchun $y'_x=0, y'_t=0, x'_t\neq 0$ shart bajarilishi kerak. Demak, $y'_x=0$ shartni qanoatlantiruvchi t ning t_0 qiymatlarini $y'_t=0, x'_t\neq 0$ munosabatdan topamiz.

b)Egri chiziqqa o'tkazilgan urinma Oy o'qiga parallel bo'lishi uchun $y'_t\neq 0, x'_t=0$ shart bajarilishi kerak. Bundan ko'rinadi urunma to'g'ri chiziq o'tuvchi $(x_0;y_0)$ nuqtaga t ning t_0 qiymatlarini $y'_t\neq 0, x'_t=0$ munosabatdan topamiz.

5.*Egri chiziqning egilish nuqtasi.*

Funksiya grafigining egilish nuqtasini toppish uchun $x'_t\neq 0$ shartda t ning $x'_t y''_{tt}-y'_t x''_{tt}=0$ tenglikni qanoatlantiruvchi qiymatlarini topish yetarli.

6.*Egri chiziqning karrali (ikkilangan) nuqtalari.*

Har xil urinmaga ega bo'lgan egri chiziq ikkita shoxining (tarmog'ining) kesishish nuqtasi egri chiziqning karrali nuqtasi deyiladi.

Agar $M_1(x_1;y_1)$ nuqta egri chiziqning karrali nuqtasi bo'lsa, t parametrning ikkita har xil t_1 va t_2 qiymatlari mavjud bo'lib, ular uchun

$$\begin{cases} x_1=\varphi(t_1)=\varphi(t_2), \\ y_1=\tau(t_1)=\tau(t_2), \end{cases} \alpha \le t \le \beta \tag{5}$$

munosabat o'rinli bo'ladi. Bu sistemani yechib, t parametrning topilgan t_1 va t_2 qiymatlariga mos kelgan egri chiziqqa o'tkazilgan urinmaning burchak koeffitsiyentlari

$$k_1=\frac{\tau'(t_1)}{\varphi'(t_1)} \text{ va } k_2=\frac{\varphi'(t_1)}{\tau'(t_1)} \tag{6}$$

formulalar yordamida topiladi.

7.*Egri chiziqning qaytish nuqtalari.*

Egri chiziqning qaytish nuqtasida

$$\varphi'(t) = 0, \tau'(t) = 0(x_t'''y_t'' - y_t'''x_t'' \neq 0) \tag{7}$$

shartlar bajariladi. Bu shartni qanoatlantiruvchi t ning qiymatiga mos kelgan egri chiziq nuqtasiga o'tkazilgan urunmaning burchak koeffitsiyenti noaniq bo'ladi.

8. *Egri chiziqning asimptotalari.*

a) Egri chiziq $x = a$ vertical asimptotaga ega bo'ladi, agarda bir vaqtda

$$\lim_{t \to t_0} \tau(t) = \infty, \ \lim_{t \to t_0} \varphi(t) = a, \tag{8}$$

tengliklar bajarilsa.

b)Egri chiziq $y = b$ gorizontal asimptotaga ega bo'ladi, agarda bir vaqtda

$$\lim_{t \to t_0} \varphi(t) = \infty, \ \lim_{t \to t_0} \tau(t) = b, \tag{9}$$

tengliklar bajarilsa.

c)$y = kx + b$ og'ma asimptotani topish uchun parameter t ning shunday t_0 qiymatini topish kerakki natijada

$$\varphi(t_0) = \infty, \ \tau(t_0) = \infty \tag{10}$$

tengliklar bir vaqtda bajarilsin.

Agar t ning shunday t_0 qiymati topilsa u holda k va b lar

$$k = \lim_{t \to t_0} \frac{\varphi(t)}{\tau(t_1)}, b = \lim_{t \to t_0} [\tau(t) - k \cdot \varphi(t)] \tag{11}$$

tengliklar yordamida topiladi.

Demak tenglamasi parametrik ko'rinishda berilgan funksiyani hosila yordamida tekshirib, uni grafigini chizishni quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1^0 Egri chiziqning o'qlarga nisbatan simmatrikligini aniqlash.

2^0 Egri chiziqnbi koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalarini topish.

3^0 Funksiyaning maxsus va oddiy nuqtalarini topish.

4^0 Egri chiziqning koordinata o'qlariga parallel bo'lgan urunmalarini topish.

5^0 Egri chiziqning egilish nuqtasini topish.

6^0 Egri chiziqning karrali nuqtalarini topish.

7^0 Egri chiziqning qaytish nuqtalarini topish.

8^0 Egri chiziqning asimptotalarini topish.

9^0 Funksiya grafigini chizish.

Endi tenglamasi parametrik ko'rinishda berilgan funksiya grafigini hosila yordamida tekshirib grafigini chizishga doir quyidagi misolni qaraymiz.

misol. tenglamasi ushbu

$$\begin{cases} x = \frac{t^2}{t^2+1}, \\ y = \frac{t(1-t^2)}{t^2+1}, \end{cases} \tag{12}$$

ko'rinishda berilgan funksiyani yuqorida bayon qilingan sxema bo'yicha tekshirib grafigini chizadigan bo'lsak ushbu shaklga ega bo'lamiz(1-chizma).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **И.И.Ляшко, А.К.Боярчик, Я.Г.Гай, Г.П.Головар.** *Математический анализ в примерах и задачах. Издательское объединение* "Вища школа". Киев-1974 г.
2. **A. Gaziev, I. Israilov, M. Yaxshiyev.** *Funksiyalar va grafiklar.*"Voris-nashriyot". Toshkent-2006 y.
3. **M.A. Sobirov va A.Y. Yusupov.** *Differensial geometriya kursi.* "O'qituvchi". Toshkent-1965 y.

УДК 372.85

SUYUQLIKKA OID KONSTRUKTIV MASALALARNI YECHISH METODIKASI

Ismoilov B.
Termiz davlat universiteti; 19boburtoxirovich93@gmail.com

Takidlab o'tish joizki, tadqiqot ishimizda bayon etilgan konstruktiv masalalar yechimlari atroflicha yoritib berilgan adabiyotlar soni yetarli darajada emas. Shu bois ham maqolada keltirib o'tilgan konstruktiv masalalarga o'xshash bo'lgan masalalar 3-sinf matematika darsligining 2019 yilgi nashridan olib tashlandi. Aslida mazkur masalalar ushbu darslikning 2016 yilgi nashrida mavjud edi(ushbu darslikning 836-masalasi nazarda tutilmoqda). Darsliklardan muammoli bo'lgan masala-larning olib tashlanishining asosiy sababi kadrlarimizning(ushbu o'rinda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nazarda tutilmoqda) aytib o'tilgan konstruktiv masalalarni yechish metodlari bilan yaqindan tanish bo'lmaganligida. Yuqoridagilarni hisobga olib 2016 yilgi 3-sinf matematika (Burxonov va ...) darsligida berilgan konstruktiv masalalarning yechimiga olib boruvchi eng qulay usulni aniqlash masalasi tadqiqotimizda muammo sifatida qaraldi.

2016 yilgi 3-sinf matematika darsligida berilgan 809-836-masalalarga o'xshash bo'lgan konstruktiv masalalar uchun, umumiy qonuniyat yaratish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik kompetentligini yuqori darajada rivojlantirish mumkin.

1-umumiy masala. Juft hajmli idishdagi suyuqlikni, hajmlari yig'indisi berilgan juft hajmli idish hajmiga teng bo'lgan toq hajmli ikkita bo'sh idish yordamida teng ikki qismga ajratish masalasi, juft idish hajmi toq idish hajmiga karrali bo'lmagan holda(836-masala 1-umumiy masalaning xususiy holi).

Ushbu masalaning yechimini aniqlash uchun quyidagi metodni taklif etamiz. Suvga oid konstruktiv masalalar yechimi uchun tavsiy etilgan metodika. Mazkur metod orqali masala yechimini aniqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich.1-bosqichda berilgan masaladagi idishlarni quyidagicha nomlab oling.
- Juft hajmli idish − birinchi idish.
- Toq hajmli idishlardan hajmi kattasi − ikkinchi idish.
- Toq hajmli idishlarning hajmi kichigi − uchunchi idish.

2-bosqich. Masala shartida berilgan suyuqliklarning idishlarda ko'rinishi 3 xil holatda nomoyon bo'ladi. Mazkur holatlarga uchunchi va ikkinchi idishlarga nisbatan qarang.
1-holat. 3-idishda suyuqlik mavjud emas.
2-holat. 3-idisha suyuqlik mavjud va 2-ishdaga ushbu suyuqlikni quyish imkoniyati bor.
3-holat. 2-idish suyuqlikka to'lgan vaqt.

3-bosqich. Ushbu bosqichda quyidagi qoidalarga amal qilgan holda masala yechimini aniqlang. **1-qoida.** Agarda 3-idish bo'sh bo'lsa, 1-idishdan faqat 3-idishga suyuqlikni quying, 2-idishga quyishingiz tafsiya etilmaydi.
2-qoida. 3-idishda suyuqlik mavjud bo'lsa, undan 2-idishga suyuqlikni quyib oling, agar imkoniyat mavjud bo'lsa, bund uchunchi idishdagi suyuqlik ikkinchi idishga to'liq quyilmasligi mumkin.
3-qoida. 2-idish suyuqlikka to'lgan vaziyatda uni birinchi idishg bo'shatib oling.

Yuqorida aytib o'tilgan qoidalarning har biri bittadan holatga mos keladi, Masala yechimiga erishish uchun birinchi holatda 1-qoidadan, ikkinchi holatda 2-qoidadan, uchunchi holatda 3-qoidadan foydalaning. Tajriba sinov ishi. Quyidagi masalani tavsiya etilgan metod orqali tajribadan o'tkazib ko'ramiz.

1-masala. 8 litrli idish suvga to'lib turibdi, 3 va 5 litrli bo'sh idishlar yordamida sutni 4 litrdan qilib teng taqsimlang[1].

1-jadval

Idishlar	8 litrlik	5 litrlik	3 litrlik	Holatlar
Idishlardagi mavjud suvlar miqdori	8 litr suv mavjud	bo'sh idish	bo'sh idish	Dastlabki holat
1-qadam	8	0	0	1-holat
2-qadam	5	0	3	2-holat
3-qadam	5	3	0	1-holat
4-qadam	2	3	3	2-holat
5-qadam	2	5	1	3-holat
6-qadam	7	0	1	2-holat
7-qadam	7	1	0	1-holat
8-qadam	4	1	3	2-holat
yechim	4	4	0	

Yechim. 1-jadvalda masala yechimini aniqlash algoritmi ko'rsatilgan. Algoritm yuqorida takidlab o'tilgan qonuniyat orqali qurildi, chunki masala sharti, juft hajmli idishdagi suyuqlikni, hajmlari yig'indisi berilgan juft hajmli idish hajmiga teng bo'lgan toq hajmli ikkita bo'sh idish yordamida teng ikki qismga ajratishdan iborat.

1-jadval asosida masala yechimini qurishning algoritmi.

1-qadam. 1-holat kuzatilmoqda, demak 1-qoidadan foydalanamiz. 8 litrlik idishdagi suvdan 3 litrlikka quyib olamiz, bunda 8 litrlikda 5 litr suv qoladi.

2-qadam. (2-holat, 2-qoidani qo'llaymiz). 3 litrlikdagi suvni 5 litrlikka quyib olamiz, bunda 3 litrlikda suv qolmaydi.

3-qadam. (1-holat, 1-qoidani qo'llaymiz). 8 litrlikda qolgan 5 litr suvdan 3 litrini bo'shab qolgan 3 litrlikka quyamiz, bu jarayonda 8 litrlik idishda 2 litr suv qoladi.

4-qadam. (2-holat, 2-qoidadan foydalanamiz). 5 litrlik idishda 3 litr suv mavjud bo'lgani uchun, 3 litrlik idishdagi suvdan 2 litrini 5 litrlikka quyib bu idishni to'ldirib olamiz. Ushbu holatda 3 litrlik idishda 1 litr suv qoladi.

5-qadam. (3-holat, 3-qoidadan foydalanamiz). 5 litrlik idishdagi suvni 8 litrlik idishga quyib olamiz, bunda 8 litrlik idishda 7 litr suv hosil bo'lib, 5 litrlik idishda esa suv qolmaydi.

6-qadam. (2-holat, 2-qoidadan foydalanamiz). 3 litrlik idishda mavjud bo'lgan 1 litr suvni 5 litrlikka quyib olamiz.

7-qadam. (1-holat, 1-qoida). 8 litrlikdagi suvdan 3 litrlikka quyib olamiz, bunda 3 litrlik suvga to'lib, 8 litrlikda 4 litr suv qoladi.

8-qadam. (2-holat, 2-qoida). Ushbu qadamda 3 litrlik idishdagi mavjud suvni 5 litrlikka quyamiz va 5 litrlik idishda ham 4 litr suv hosil bo'ladi.

Tavsiya etilgan metod orqali, masala shartida berilgan 8 litrlik idishda berilgan suvni 4 litrdan qilib teng ikki qismga taqsimladik va natijada yechimga erishildi.

1-natija. Juft hajmli idishdagi suyuqlikni (idish suyuqlikka to'la), hajmlari yig'indisi berilgan juft hajmli idish hajmiga teng bo'lgan toq hajmli ikkita bo'sh idish yordamida teng ikki qismga ajratish mumkin va bu jarayon aytib o'tilgan juft hajmli idish miqdorining son qiymatiga teng bo'lgan qadamda aniqlanadi.

Maqolada bayon etilgan, birinchi va ikkinchi masalalar yechimlarining aniqlanish algoritmiga e'tibor bering, haqiqtdan ham 1-masalaning yechimi 8 qadamda, 2-masalaning yechimi esa 12 qadamda aniqlangan.

2-natija. n>2 shartni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy natural son uchun 3n-2 litrlik idishda 3n-3 litr, 2n litrli idishda n+1 litr suyuqlik mavjud bo'lganda, n litrli bo'sh idish yordamida idishlarda berilgan suyuqlikni teng ikki qismga ajratish mumkin va bu jarayon 5 ta qadamda aniqlanadi.

Xulosa. Tadqiqot ishida tavsiya etilgan usullarni puxta o'zlashtirgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari(boshlang'ich sinf o'qituvchilari) soni ko'paysagina, yechimini aniqlash muammoli deb qaralgan konstruktiv masalalarni darsliklardan olib tashlashga ehtiyoj qolmaydi.

Ushbu tadqiqot ishining keng targ'ib qilinishi orqali kadrlarimiz(bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari) maqolada keltirilgan konstruktiv masalalarning yechimlarini qurishda muammolarga duch kelmaydi, bu esa maqolada yechimi ko'rsatilgan va ularga o'xshash bo'lgan konstruktiv masalalarning boshlang'ich sinf matematika darsliklariga(3-4-sinflar) kiritish uchun asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **S.Burxonov va boshqalar.** *MATEMATIKA Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.* Toshkent-2016.67, 150, 154-betlar.
2. **M.A. Mirzaahmedov va boshqalar** *4-5-6- sinflar uchun matematikadan masalalar to'plami* o'quv qo'llanma.Toshkent-2018.

УДК 51

Parametrli tenglamalarni har xil usulda yechish

Janiqulov Q.K.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik, biotexnologiyalar universiteti akademik litseyi; qamariddinjaniqulov@mail.ru

Parametrli masalalar elementar matematikaning eng qiyin masalalaridan hisoblanadi. Agar masala (tenglama, tengsizlik, sistema) bir nechta o'zgaruvchilarga bog'liq bo'lsa, u holda o'zgaruvchilardan birini asosiy(noma'lum)deb, qolganlarini parametrlar deb ataladi. Parametrlarning soniga qarab masalalar bir, ikki,... parametrli masalalar deyiladi.

Parametrli masalalarni yechish deganda biz, parametrlarning qabul qilishi mumkin bo'lgan barcha qiymatlarida noma'lumning masalani qanoatlantiradigan barcha qiymatlarini(yechimni) topishni tushunamiz. Tadqiqot ishida parametrli tenglamalarning yechimlarini bir nechta metodlar bilan topib ko'rsatamiz. Bu turdagi masalalar quyidagi ishlarda ham qaralgan [1–7].

1– masala. $\left|x^2-5ax\right|=15a$ tenglama ikkita haqiqiy yechimga ega bo'ladigan, a ning natural qiymatlari yig'indisini toping.

Yechish: $1-$ *usul*: (*Analitik usul*) $\left|x^2-5ax\right|=15a$ tenglamani yechamiz:

$$x^2-5ax=\pm15a \Longrightarrow x^2-5ax+15a=0,\ x^2-5ax-15a=0.$$

Hosil bo'lgan

$$x^2-5ax+15a=0 \tag{1}$$

va

$$x^2-5ax-15a=0 \tag{2}$$

kvadrat tenglamalarning diskriminantini mos ravishda $\mathcal{D}_1$ va $\mathcal{D}_2$ deb olib, ularni hisoblaymiz: $\mathcal{D}_1=25a^2-60a$ va $\mathcal{D}_2=25a^2+60a$.

$(a>0)$ ning istalgan qiymatida $\mathcal{D}_2>0$ ekani ravshan. Bu degani (2) tenglama ikkita turli haqiqiy ildizlarga ega. Eslatib o'tamizki, (1) va (2) tenglamalarning ildizlari berilgan modulli tenglamaning ildizi ham bo'ladi. Masala shartiga ko'ra tenglama ikkita haqiqiy yechimga ega bo'lishi uchun, $\mathcal{D}_1$ manfiy bo'lishi kerak.

$$\mathcal{D}_1<0,\ 25a^2-60a<0 \Longrightarrow 0<a<2,4. \tag{3}$$

(3) ga ko'ra a ning natural qiymatlari 1 va 2 bo'lib, ularning yig'indisi 3 bo'ladi. ***Javob***: 3

2–*usul*: (*Grafik usul*) $y_1 = \left|(x-\frac{5a}{2})^2 - \frac{25a^2}{4}\right|$ va $y_2 = 15a$ funksiyalarning grafiklarini bitta koordinatalar tekisligida chizib olamiz. U holda y_2 to‘g‘ri chiziq y_1 siniq egri chiziqni quyidagi holatda kesib o’tadi:

Bu holda y_1 va y_2 chiziqlar ikkita umumiy nuqtaga ega. Shuning uchun berilgan tenglama ikkita yechimga ega bo‘lib, ulardan biri musbat va ikkinchisi manfiy(1–*chizmaga qarang*). $15a > y_0 > 0$.

Masala shartiga ko‘ra berilgan tenglama ikkita yechimga ega bo‘lishi uchun $15a > y_0 > 0$ bo‘lishi kerak. Bundan $15a > y_0 > 0$, $15a > \frac{25a^2}{4} > 0 \Longrightarrow a \in (0; 2,4)$.

a ning natural qiymatlari 1 va 2 bo’lib, ularning yig‘indisi 3 ga teng. ***Javob***: 3

3 – *usul*: (*Intervallar usuli*) $\left|x^2 - 5ax\right| = 15a$ tenglama noldan farqli yechimga ega bo‘lishi uchun, avvalo $a > 0$ bo‘lishi kerak. Endi berilgan tenglamani yechamiz:

$$|x \cdot (x-5a)| = 15a\ , \qquad |x| \cdot |x-5a| = 15a.$$

$$I.\ x<0,\ \ x^2-5ax-15a=0,\quad x_{1,2}=\frac{5a \pm \sqrt{25a^2+60a}}{2},\quad x_1=\frac{5a-\sqrt{25a^2+60a}}{2}.$$

$$II.\ 0<x<5a,\quad x\,(5a-x)=15a,\quad x^2-5ax+15a=0,\quad x_{3,4}=\frac{5a \pm \sqrt{25a^2-60a}}{2},$$

$$x_3=\frac{5a-\sqrt{25a^2-60a}}{2},\qquad x_4=\frac{5a+\sqrt{25a^2-60a}}{2}.$$

$$III.\ x>5a,\qquad x\,(x-5a)=15a,\qquad x^2-5ax-15a=0,\qquad x_{5,6}=\frac{5a \pm \sqrt{25a^2+60a}}{2},$$

$x_5 = \frac{5a+\sqrt{25a^2+60a}}{2}$, $a > 0$ bo‘lganda $x_1 = \frac{5a-\sqrt{25a^2+60a}}{2}$ va $x_5 = \frac{5a+\sqrt{25a^2+60a}}{2}$ yechimlar haqiqiy bo‘ladi. Shuning uchun $x_{3,4}$ yechimni bo‘lmaslik kerak. Buning uchun $25a^2 - 60a < 0 \Longrightarrow 0 < a < 2,4$. a ning natural qiymatlari 1 va 2 bo‘lib, ularning yig‘indisi 3 ga teng. ***Javob***: 3

2–masala. $\sqrt{2x^2+ax+2a+10} = x-1$ tenglama haqiqiy yechimga ega bo‘ladigan, a ning qiymatlarini toping.

Yechish: 1–*usul*: (*Analitik usul*). Berilgan tenglama yechimga ega bo‘lishi uchun,

$$\begin{cases} x-1 \geq 0 \\ 2x^2+ax+2a+10 = x^2-2x+1 \end{cases} \Longrightarrow \begin{cases} x-1 \geq 0 \\ x^2+(a+2)\,x+2a+9=0 \end{cases} \tag{4}$$

(4) yechimga ega bo‘lishi uchun $D = (a+2)^2 - 4\,(2a+9) = a^2 - 4a - 32 \geq 0,\ \Longrightarrow\ (-\infty; -4] \cup [8; \infty)$. Endi berilgan tenglamani yechamiz:

$$x_1=\frac{-a-2 \pm \sqrt{a^2-4a-32}}{2},\qquad \frac{-a-2+\sqrt{a^2-4a-32}}{2} \geq 1, \Longrightarrow -a-2+\sqrt{a^2-4a-32} \geq 2,$$

$$\sqrt{a^2-4a-32} \geq a+4,\quad a^2-4a-32 \geq a^2-8a+16,\quad -12a \geq 48,\quad a \leq -4.$$

Javob: $(-\infty; -4]$

2–*usul*: (*Grafik usul*) $f\,(x) = x^2 + (a+2)\,x + 2a + 9$ funksiyani qaraymiz. $D \geq 0$, $f\,(1) \geq 0$, $x_0 \geq 1$, shartlar bajarilishi kerak. (2–*chizmaga qarang*).

$$\begin{cases} D \geq 0, \\ f(1) \geq 0, \\ x_0 \geq 1, \end{cases} \Longrightarrow \begin{cases} a^2-4a-32 \geq 0, \\ f\,(1) = 1^2 + (a+2)\cdot 1\ + 2a + 9 \geq 0, \\ -\frac{a+2}{2} \geq 1, \end{cases} \Longrightarrow \begin{cases} (-\infty; -4] \cup [8\,;\infty)\,, \\ a \geq -4, \\ a \leq -4. \end{cases}$$

Bu sistemadan $x = -4$ yechim ekanligini topamiz. ***Javob***: -4

3–*usul*: (*Parametr kiritish usul*) $x^2 + (a+2)\,x + 2a + 9 = 0$, tenglamadan $l = x - 1$, belgilash olsak, $x = l+1$, $x \geq 1$, $l+1 \geq 1$, $l \geq 0$, $(l+1)^2 + (a+2)(l+1) + 2a + 9 = 0, \Longrightarrow l^2 + 2l + 1 + (a+2)l + a + 2 + 2a + 9 =$

0, $l^2+(a+4)l+3a+12=0$. Bu parametrli kvadrat tenglama yechimga ega bo'lishi uchun quyidagi sistemani birgalikda yechish kerak.

$$\begin{cases} D \geq 0, \\ l_1+l_2 \geq 0, \\ l_1 \cdot l_2 \geq 0, \end{cases} \Longrightarrow \begin{cases} a^2-4a-32 \geq 0, \\ -(a+4) \geq 0, \\ 3a+12 \geq 0, \end{cases} \Longrightarrow \begin{cases} (-\infty;-4] \cup [8;\infty), \\ a \leq -4, \\ a \geq -4. \end{cases}$$

Bu sistemadan $x=-4$ yechim ekanligini topamiz. ***Javob***: -4

Adabiyotlar

1. **Ястрибинецкий Г.А.** *Уравнения и неравенства, содержащие параметры.* М.: “Просвешение”, 1972.
2. **Горнщтейн П.И., Полонский В.Б., Якир М.С.** *Задачи с параметрами.* – К.1995. –336.
3. **Кожухов С.К.** *Об одном классе параметрических задач.* Математика в школе. No. 3, 1996. С. 45-49.
4. **Кожухов С.К.** *Различные способы решения задач с параметром.* Математика в школе. No. 6, 1998. С. 9-12.
5. **Мещрякова Г.П.** *Задачи с параметрами, сводящиеся к квадратным уравнениям.* Математика в школе. No. 5 2001.
6. **Ostonov Q., Quljonov O‘., Mardonov J. , Arziqulov A.U.** *Parametrli tenglama va tengsizliklarni yechish usullari.* Uslubiy qo‘llanma, Samarqand, 2017, 80 bet.
7. **Farmonov Sh.K.** *Parametrga bog‘liq tenglamalar.* Fizika, Matematika va Informatika jurnali, 2002-yil No. 1, 17–22 betlar.

УДК 371:38.014

BA'ZI AYLANMA SIRTLARNING HOSIL BO'LISHI

Mahmudov . F.F.[1], Ashurova. Z A.[2]
[1] Gachon universiteti Janubiy Korea ; Fazliddin_4147@bk.ru
[2]Termiz davlat universiteti; ashurovazarnigor1995@gmail.com

Ma'lumki evklid fazosida tor aylanani l o'q atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan sirtga aytilar edi. Agar bu yerda aylanani, berilgan kesma bir xil burchak ostida ko'rinadigan nuqtalarning geometrik o'rni shaklida aniqlash mumkinligini hisobga olsak, galiley tekisligida bu ta'rifni qanoatlantiradigan nuqtalarning geometrik o'rni simmetriya o'qi maxsus to'g'ri chiziq bo'lgan parabola bo'ladi.

Ta'rif . Galiley tekisligi berilgan kesma (maxsus bo'lmagan) o'zgarmas burchak ostida ko'rinadigan nuqtalarning geometrik o'rni sikl deb ataladi. Galiley tekisligidagi siklni evklid geometriyasidagi aylana ta'rifini qanoatlantiradigan chiziq sifatida qarash mumkin.

R_3^1 Galiley fazosida uchi maxsus o'q ya'ni Ox da yotmagan siklni shu lo'q atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan sirt tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\overline{r}(u,v)=u\overline{i}+(au^2+bu+c)cosv\overline{j}+(au^2+bu+c)sinv\overline{k} \quad (1)$$

bu yerda $b^2-ac \neq 0$

Sikl uchun a koeffisent invariant kattalikdir. Ammo $b^2-ac \neq 0$ shartga ko'ra sikl yo'nalishi ahamiyatsiz. $b^2-ac<0$ bo'lganda Ox o'qni kesib o'tmaydi.Unda $x=u, \quad z=au^2+bu+c$ profil chiziqni Ox o'qi atrofida aylantirsak hosil bo'lgan sirt uchun to'la egrilik $K<0$ bo'ladi.

Aksincha, $b^2-ac>0$ bo'lsa profil chiziqni Ox o'q atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan sirt ikkita maxsus nuqtalarga ega bo'lgan qavariq sirt bo'ladi. Sirtning xar bir nuqtasi uchun $K>0$ shart bajariladi.

Teorema . Sirt (1) tenglama bilan berilgan bo'lsin bu yerda $b^2-ac \neq 0$.

1)$b^2 - ac < 0$ bo'lsa berilgan sirt egarsimon aylanma sirtlar ;
2)$b^2 - ac > 0$ bo'lsa berilgan sirt ,maxsus nuqtalarga ega bo'lgan qavariq sirtlar oilasi ;
bo'ladi.

Demak galiley fazosida sirt (1) tenglama bilan berilganda va ma'lum shartlar bajarilganda to'la egriligi musbat va manfiy bo'lgan ikkita sirtni aniqlar ekan.

Adabiyotlar

1. **Артыкбоев А., Соколов Д.Д.** *Геометрия в целом в пространстве-время.* Т.: Фан. 1991. 179 с.
2. **И.М.Яглом .** *Относительности галилея и неевклидова геометрия .* Наука". Москва 1969 г 305 с

Geometriya fanidan "Ikkinchi tartibli sirtlar"mavzusini o'rganishda maple dasturi imkoniyatlaridan foydalanish.

Radjabov B.Sh. [1,a], Raxmanova G.A[1,b] , Sadullayeva M[1,c] ,

[1] *Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston*
E-mail: [a] b.rajabov.5252@gmail.com, [b]gulinozabonu840502@bk.ru,
[c] tulabaevtimur38@gmail.com

Hozirgi kunda axborot texnologiyasining o'quv jarayonidagi o'rni va ro'li bir qancha sohalarda muhim o'rin egallaydi. Masalan: Algebra, Geometriya, Differensial tenglamalar va turli xil ko'rinishdagi grafiklarda ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu qatorida murakkab matematik masalalarni yechishni osonlashtiradi. Matematik paketlardan o'quv jarayonida foydalanish matematik va texnik ta'limning fundamentalligini oshirishni ta'minlaydi. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash mahoratlarini oshiradi. Hozirgi zamon yoshlari bilimi va tarbiyasi davr talabiga javob beradigan hamda umuminsoniy ta'lim-tarbiya shakl-tamoyillari bilan hamohang bo'lishi zarur. Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda kompyuter texnologiyalari yordamida darslarni o'tkazish o'quvchilarni darsda befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi, kompyuter savodxonligini oshirish hamda o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Maple-bu kompyuterda analitik va sonli hisoblashlarni bajaruvchi, 2000 dan ko'proq buyruqlarni o'z ichiga olgan va algebra, geometriya, matematik analiz, differensial tenglamalar, diskret matematika, fizika, statistika, matematik fizika masalalarini dastur tuzmasdan yechish imkoniyatini beruvchi matematik tizim (sistema) –paketdir. Aytish mumkinki, Maple bu yuqorida sanab o'tilgan sohalardagi matematik masalalarni yechib beruvchi katta kalkulyatordir. Maple takomillashib bormoqda, hozir uning Maple 9.5, Maple 11-versiyalari keng tarqalgan.

Geometriya fanida o'zlashtirishda Maple dasturi bugungi kunda talabalarga ko'pgina imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Xususan Oliy ta'lim jarayonida ikkinchi tartibli sirtlarga oid misollarning yechilishi va grafikaviy chizilmasini chizish murakkab bo'lib keladi, Maple dasturi bilan ishlash esa talabalarga ko'pgina yengilliklar yaratib beradi.

Biz kompyuterdan foydalanib Maple dasturi yordamida geometriya kursidan ikkinchi tartibli sirtning umumiy ko'rinishdagi tenglamasi bilan berilganda grafigini yasash usulini qaraymiz.

Maple dasturi yordamida ikkinchi tartibli sirtning umumiy ko'rinishdagi tenglamasining grafigini chizishda bizga Mapleda grafiklar yasash tartibi va buyruqlarini bilishimiz kerak bo'ladi.

Masalan:$plot\left(f(x), x = a..b,\ y = c..d,\ parametrs\right)$ buyrug'ini $f\left(x\right), x = a..b,\ y = c..d$ grafigi tugun funktsiyani ham $implicitplot2d\left(F\left(x,y\right) = c,\ x = x1..x2,\ y = y1..y2\right)$; komandasini $F\left(x,y\right) = c,\ x = x1..x2,\ y = y1..y2$ grafigi tugın funktsiya saykes qo'yiladi ham animate, animate2d komandasi animatsiya yaratishda ishlatiladi.

Geometriya fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bu dars samaradorligini oshirishda, talabalar erkin misollarni ishlab uni kompyuter orqali tekshirish va kompyuterdan foydalanib Maple dasturi yordamida geometrik obrazlarning grafiklarini yasash talabalarga ko'pgina yengilliklar yaratib beradi.

Maple dasturlashsiz katta hajmdagi masalalarni yechish imkoniyatiga ega. Faqat masalalarni yechish algoritmini yozish va uni bir necha bo'laklarga bo'lish kerak. Bundan tashqari yechish algoritmlari funksiya va sistema buyruqlari ko'rinishida hal qilingan minglab masalalar mavjud. Maple uch xil shaxsiy tilga ega: kirish, hal qilish va dasturlash. Maple matematik va injener-texnik hisoblashlarni o'tkazishga mo'ljallangan dasturlashning integrallashgan tizimi hisoblanadi. U formula, son, matn va grafika bilan ishlash uchun keng imkoniyatli tizimdir.
Maple dasturida ikkinchi tartibli sirtlarning grafigini yasay olamiz.

1-misol. $x^2+y^2+z^2=1$ **tenglamasi bilan berilgan sfera va** $2x+3y-z=0$ **tekislikning o'zaro vaziyatini aniqlang.**

$$> with\,(plots):$$

$$implicitplot3d([x^2+y^2+z^2=1, 2\bullet x+3\bullet y-z=0], x=-1..1,\\ y=-1..1, z=-1..1)$$





2-misol.$x^2+2y^2+3z^2-1=0$ **ellipsoidning**$2x+y+z=0$**tekislik bilan o'zaro vaziyatini quyidagi dastur yordamida aniqlanadi:**

$$> with\,(plots):$$

$$implicitplot3d([x^2+2\bullet y^2+3\bullet z^2=1, 2\bullet x+y+z=0], x=-1..1, y=-1..1, z=-1..1);$$





3-misol. $\frac{x^2}{3}+\frac{y^2}{5}-\frac{z^2}{2}=1$ **giperboloidning** $x+3y-z=0$ **tekislik bilan o'z-aro kesishgan vaziyati aniqlang.**

$$> with\,(plots):$$

$$implicitplot3d([x^2/3+y^2/5-z^2/2=1, x+3\bullet y-z=0], x=-5..5, y=-5..5, z=-4..4);$$



4-misol. $\frac{x^2}{5} - \frac{y^2}{4} = 6z$ **giperbolik paraboloidning** $x - y + 6 = 0$ **tekislik bilan o‘zaro vaziyati**

$$with(plots) : implicitplot3d([x^2/5 - y^2/4 - 6 \bullet z = 0, x - y + 6 = 0],$$
$$x = -10..10,\ y = -25..25,\ z = -10..10)$$



Xulosa: Shunday qilib, Maple matematik masalalarni yechish dasturiy paketi yordamida nafaqat standart geometrik figuralarni (jumladan paraballoid, ellipsoid, giperbolloid yoki giperbolik parabolloid) turli formulalar bilan murakkab sirtlarni, ularning kesimlari bo‘yicha vaziyatlarni tasvirlash mumkin. Agar bu chizmalarni uch o‘lchovli fazoga ko‘chirilganda 3D formatdagi ko‘rinishini ham tasvirlash mumkin va natijani kompyuter yordamida turli ko’rinishlarda ifodalash imkoniyati tug‘iladi. Bunday holat ta o‘quvchi va talabalarning xususan geometriya kursidangi "Ikkinchi tartibli sirtlar"mavzusini chuqurroq o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Tayanch so’zlar: maple dasturi, tenglamalar, grafik, funktsiya, ellipsoid, paraboloid, giperboloid..

Adabiyotlar

1. **N.D. Dadajonov, M.Sh.Jo’rayeva** *Geometriya*, 1-qism, Toshkent "O’qituvchi"1996,380 b.
2. **A. Imamov** *Maple da matematik masalalarni yechish,uslubiy qo‘llanma,* NamDU, 2011,–84 b
3. **A.Y. Narmanov** *Analitikalik geometriya* Toshkent 2008, 171 b.
4. **Eshtemirov S., Aminov I.B. , Nomozov F.** *Maple muhitida ishlash asoslari.* Uslubiy qo‘llanma. –SamDU, Samarqand, 2009 y.
5. **http://www.maplesoft.com**

UDK 519.248.2

FIZIKA MASALALARNI MATEMATIK QONUNIYATLAR VOSITASIDA YECHISH

Raimov G‘ayrat Fayzullayevich[1], Xolliyev Diyor Navro‘z o‘g‘li[2]
[1,2]Termiz davlat universiteti;
raimov.gayrat@mail.ru xolliyevd@gmail.com

Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan isbotlashga doir fizik masalalar asosan olimpiada materiallarida keng qo‘llanilgan bo‘lib, bunday ko‘rinishdagi misollar asosan fizikadan olimpiadalarga tayyorgarlik koʻrayotganlar uchun qoʻl keladi. Biz bu isbotlashga doir fizik masalalarimizning qisqaroq va qulayroq yechish usullarini keltirib oʻtamiz. Biz oʻrganayotgan masalalarning yechish usullari bizning shaxsiy tajribamizga asoslangan holda kelib chiqqan boʻlib avvalgi usullardan osonroq va tushunish hamda tushuntirish uchun qulayroq.

Masala deb maʻlum shartlarga koʻra qoʻyilgan savolga javob berishni talab etuvchi har qanday jumlaga aytiladi.

Masalani yechish-bu masalada bevosita yoki bevosita mavjud boʻlgan sonlar, miqdorlar, munosabatlar ustida amallar va operatsiyalarning mantiqan toʻgʻri ketma-ketligi orqali masalalarning talabini bajarish (uning savoliga javob berish) demakdir.

Bu bosqich masala shartidagi maʻlumotlardan foydalanib izlanayotgan kattaliklarni topishga imkon beradigan tenglik yoziladi, yaʻni matematika tiliga aylantiriladi.

- Maʻqul topilgan biror usulda yechib chiqish; Bu bosqichda hosil boʻlgan algebraik tenglama yechiladi.

- Hosil boʻlgan yechimlarning masala shartlarini qanoatlantirishini sinab koʻrish;

- tekshirish (mazkur shartlar asosida masala yechimga ega yoki yechimga ega emasligi tekshiriladi); Masala yechimining bayonini berish;

- yechish usulini tahlil qilish (ratsional yoki umumiy yechish usuli bor-yoʻqligi haqida xulosalar).

Masalalar ularning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bir masala bir necha usul bilan yechilsa, uni bajargan oʻquvchi, unda qoʻllanilayotgan turli faktlarning oʻzaro aloqador ekanligini koʻrish imkoniyatiga ega boʻladi.

Koʻrilayotgan masalalar standart yoki nostandart boʻlishi mumkin.

Standart masalalar deb, shunday masalalarga aytiladiki, ularning har birining yechish tartibi biror bir matematik qoida yoki tasdiqlar bilan aniq beriladi.

Nostandart masalalarni bunday yechish yoʻli, odatda, sunʻiy usul (yoki "Evrik"qoida) deb ataladi. Nostandart tenglamalarni yechishning umumiy usuli mavjud emas. Odatda, nostandart tenglamalarni yechish uchun funksiyalarning grafiklaridan, turli xossalaridan foydalaniladi. Maʻlumki, funksiyalarni tekshirish, grafiklarini yasashda hosiladan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan nostandart tenglamalarni yechishda hosiladan foydalanish mumkin boʻladi va bu tenglamaning ildizlarini topish ancha osonlashadi. Demak, hosiladan foydalanib nostandart tenglamalarni yechish, shuningdek, differensial hisobning asosiy teoremalaridan keng foydalanish mumkin. Quyidagi maslalar yordamida namuna keltiramiz:

Masala. Linza oldidagi buyum bilan uning haqiqiy tasviri orasidagi eng qisqa masofa 25 sm ga teng boʻlsa, linzaning optik kuchinin (D) toping.

Yechim:

$$d+f=0,25 \quad bundan: \quad d+\frac{Fd}{d-F}=0,25 \tag{1}$$

$$\frac{1}{F}=\frac{1}{d}+\frac{1}{F} \quad bundan: \quad f=\frac{Fd}{d-F} \tag{2}$$

Bu yerda d-maksimumga erishish uchun uning hosilasi nolga teng boʻlishi kerak:

$$\frac{2d(d-F)-d^2(1-0)}{(d-F)^2}=0 \quad bundan: \quad \frac{d^2-2dF}{(d-F)^2}=0 \quad bundan: \quad d=2F \tag{3}$$

(3) ni (2) ni keltirib qoʻysak:

$$f=\frac{F\cdot 2F}{F}$$

bundan: $4F=0,25$ bundan: $F=\frac{1}{16}$ U holda $D=\frac{1}{F}=\frac{1}{\frac{1}{16}}=16\,dptr$

2-usul:

$$\frac{1}{F}=\frac{1}{d}+\frac{1}{F} \quad bundan: \quad f=\frac{Fd}{d-F}$$

$d + f = 1$ bundan: $l = \frac{d^2}{d-F}$

$$l = \frac{d^2 - F^2 + F^2}{d - F} = \frac{d^2 - F^2}{d - F} + \frac{F^2}{d - F} = d + F + \frac{F^2}{d - F} = d + F + 2F + \frac{F^2}{d - F} = (d - F + \frac{F^2}{d - F} + 2F)$$

Koshi tengsizligidan:

$$((d - F) + \frac{F^2}{d - F})_{min} = 2\sqrt{(d - F)\frac{F^2}{d - F}} = 2F$$

demak:

$l_{min} = 2F + 2F = 4F = 0,25$ bundan: $F = \frac{1}{16}$

U holda: $D = \frac{1}{F} = 16\,dptr$

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning yuqori sinflarga ko‘chganida matematik tushunchalarni o‘zlashtirishlarida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu ayniqsa, fizika darsiga qiziqtirishni uyg‘otish, o‘quvchilarga fizika darsiga qiziqarli o‘tishi uchun o‘qituvchi o‘z kasbining mohir bilimdoni, izlanuvchisi, yetuk ustozi bo‘lishi lozim. Fizika masalalar va ularning yechish usullarini o‘rgatishda turli innovatsion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanib tashkil qilingan darslar o‘quvchilar o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi. Ularning yechish usullari mavzusi fizikaaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib uni 6-11-sinflarda chuqur va mukammal o‘rganish kelajakda ushbu fanning fidoisi bo‘lib yetishishlari uchun zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. **Raimov G‘. F.** *Maktab fizika darslarida nostandart masalalar yechish metodikasi* Namangan davlat universiteti axborotnomasi - Namangan, -2020. -7- son. -B.300-304. (13.00.00, №30). ISSN-2181-0427.
2. **Raimov G‘. F.** *Improving the solution of non-standard problems in school physics lessons* Namangan davlat universiteti axborotnomasi. –Namangan, -2021. -9 – son. -B.-423-429. (13.00.00, 30). ISSN-2181-0427.
3. **Raimov G‘. F.** *Methodology of selection, construction and solution of non-standard graphics, drawings, pictures of the department of physics "mechanics"* // European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: https://www.scholarzest.com Vol. 2 No. 5, may 2021 y, ISSN: 2660-5562 142 | Page 142-146.
4. **Raimov G‘. F.** *Principles of didactics in computer solution of non-standard problems from physics in general secondary schools.* ISJ Theoretical Applied Science, 10 (102), (2021). 759-761. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-102-79 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS Scopus ASCC: 3304.

УДК 517.956

7-sinfda geometriyani fizika bilan bog’lab sinxron o’qitishda o’quvchi kreativligini oshirish

Sobirova M.R.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti; u.sobirov2344@gmail.com

Ta’lim jarayonida geometriyani fizika bilan bog’lab sinxron o’qitishda o’quvchilar kreativligini rivojlantirish asosida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish, faktlarni tahlil qilish, hodisa va jarayonlarni o’rganishda sabab-oqibat bog’lanishlari mohiyatini tushunish, o’quv fanlari bo’yicha avval o’zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo’llash, o’quvchilarning o’quv materialini ongli o’zlashtirishga erishishga zamin tayyorlaydi.

Sinxron bog’lanishlar shunchaki bir vaqtning o’zida fanlararo sodir bo’ladigan bog’lanishlargina emas. Bu, shuningdek, qandaydir qonun qoidalar orqali bir-biriga bog’langan, ba’zi bir asosiy nuqtalarda kesishadigan bog’lanishlardir [1]. Ya’ni sinxron bog’lanish deganda, o’quv fanlari mavzulari dastur va o’quv rejasi asosida sinflararo parallel bog’lanish tushuniladi. U quyidagicha ifodalaniladi:

1. 7-sinf "Geometriya"darsligidagi "Eng sodda geometrik shakllar: nuqta, to'g'ri chiziq va tekislik"mavzusining geometriya va fizikaga tegishli atama va tushunchalari: nuqta o'lchamlarini hisobga olmasa bo'ladigan juda kichik narsalarning geometrik timsoli. Qog'ozning cheti kabi shakllarning geometrik timsoli to'g'ri chiziq to'g'risida tasavvur beradi. Pol, stolning ustki qismi, devor, shift, daftar varag'i, sokin ko'ldagi suv sathi, kabilarning geometrik timsoli tekislik bo'ladi. Aksiomalar: Tekislikda qanday to'g'ri chiziq olinmasin, bu to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lgan nuqtalar ham, tegishli bo'lmagan nuqtalar ham mavjud. Har qanday ikki nuqtadan faqat bitta to'g'ri chiziq o'tadi. Har bir to'g'ri chiziq tekislikni ikki bo'lakka: ikkita yarim tekislikka ajratadi (7-sinf, 1- bob, 8-9 betlar).[2]

Sinxron bog'lanadigan mavzu bu 7-sinf fizika darsligidagi "Fazo va vaqt. Fazoning cheksizligi"mavzusining geometriya va fizikaga tegishli atama va tushunchalari: fazo cheksiz va chegarasizdir, fazoni uch o'lchamli koordinatalarda tasvirlash mumkin. Tekislikdagi harakatni ikki o'lchamli koordinatada tasvirlash mumkin. Fazoning asosiy xossalari: haqiqatan ham, mavjudligi, materiya bilan ajralmasligi (olamda fazo bilan bog'lanmagan bitta ham obekt yo'q), cheksizligi, uch o'lchamliligi (barcha fizik obyektlarning bo'yi, eni va balandligi mavjud). Vaqtni bir o'lchamli koordinatada ifodalash mumkin (7-sinf, 1-Bob, 11-14 betlar).[3]

2. 7-sinf "Geometriya"darsligidagi "Kesma va nur"mavzusining geometriya va fizikaga tegishli atama va tushunchalari: Kesma deb to'g'ri chiziqning ikki nuqtasi orasida yotgan nuqtalaridan iborat qismiga aytiladi. Nur deb to'g'ri chiziqning biror nuqtadan bir tomonda yotgan barcha nuqtalaridan iborat qismiga aytiladi. AKSIOMA: Bir to'g'ri chiziqda olingan istalgan uchta nuqtadan bittasi va faqat bittasi qolgan ikkitasining orasida yotadi. Har qanday kesma tayin musbat songa teng uzunlikka egadir. Agar to'g'ri chiziqda B nuqta A va C nuqtalar orasida joylashgan bo'lsa, AC kesma uzunligi AB va BC kesmalar uzunliklarining yig'indisiga teng bo'ladi: $AC = AB + BC$ (7-sinf,1- bob, 10-11 betlar).[2]

Sinxron bog'lanadigan mavzu bu 7-sinf fizika darsligidagi kinematikaning asosiy tushunchalari mavzusining geometriya va fizikaga tegishli atama va tushunchalari: moddiy nuqta,traektoriya, ko'chish, yo'nalishli kesma (vektor), yo'l, ilgarilanma harakat, ilgarilanma harakat to'g'ri chiziqli va egri chiziqli bo'lishi mumkinligi (7-sinf, 1-Bob, 14-18 betlar).[3]

3. 7-sinf geometriya darsligidagi "Aylana va doira"mavzusining geometriya va fizikaga tegishli atama va tushunchalari: tayin O nuqtadan teng uzoqlikda yotgan barcha nuqtalar to'plami aylana deb ataladi. O nuqta bu aylananing markazi deyiladi. Aylananing ixtiyoriy nuqtasidan uning markazigacha bo'lgan masofa aylananing radiusi deb ataladi. Aylananing ixtiyoriy ikki nuqtasini tutashtiruvchi kesma aylana vatari deb ataladi. Markazdan o'tuvchi vatar esa diametr deb ataladi. Diametr - eng katta vatar. Doira deb, tekislikning aylana bilan chegaralangan qismiga aytiladi. Aylananing markazi, radiusi va diametri shu aylana chegaralagan doiraga nisbatan ham qo'llanadi. (7-sinf, 1- bob, 18-19 betlar).[2]

Sinxron bog'lanadigan mavzu bu 7-sinf fizika darsligidagi "Markazga intilma tezlanish"mavzusining geometriya va fizikaga tegishli atama va tushunchalari: aylanma harakatda tezlanish, markazga intilma tezlanish (7-sinf, 3-Bob, 62-64 betlar).[3]

4. 7-sinf geometriya darsligidagi "Burchaklarni o'lchash. Transportir"mavzusining geometriya va fizikaga tegishli atama va tushunchalari: yoyiq burchak o'zining tomonlari orasidan o'tuvchi nurlar bilan 180 ta teng burchakka bo'lingan bo'lsin. Bu bo'laklarni burchak o'lchovi birligi, ya'ni birlik burchak sifatida olish qabul qilingan.Uning kattaligi bir gradus deb ataladi va 1° deb belgilanadi. Aksioma: Har qanday burchak tayin gradus o'lchoviga ega bo'lib, uning qiymati musbat son bilan ifodalanadi. Yoyiq burchakning gradus o'lchovi 180° ga teng. Burchakni uning ichidan o'tuvchi nur ikkita burchakka ajratsa, berilgan burchak o'lchovi hosil bo'lgan burchaklar o'lchovlarining yig'indisiga teng. (7-sinf, 2 - bob, 30-31 betlar).[2]

Sinxron bog'lanadigan mavzu bu 7-sinf fizika darsligidagi "Jismning tekis aylanma harakati"mavzusining geometriya va fizikaga tegishli atama va tushunchalari: radian - bir radian shunday burchakki, bunday burchak qarshisidagi yoyning uzunligi shu aylananing radiusiga teng. Burilish burchagi, radian, gradus (7-sinf, 3-Bob, 56-59 betlar).va x.k.[3]

Adabiyotlar

1. **Бирмана С.И., Мозгового К.** Советы Ильи Бирмана и Константина Мозгового. Дата обращения: 11 ноября 2020. Архивировано 28 сентября 2020 года.
2. **Азамов А., Хайдаров Б., Сариков Э., Кучкаров А., Сагдиев У.** Геометрия. Учебник для 7-го класса общеобразователных школ. Ташкент-Янги йўл полиграф сервис-2013.-156 с.
3. **Habibullayev P.Q.,Boydedayev A.,Bahromov A.D.** Fizika: umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinfi uchun darslik/ Qayta ishlangan uchinchi nashr. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019.

Geometriya fanini o'qitishda o'quvchilar faolligini oshirish

To'rayeva N. A.[1], Mamatova N. X.[2], Merajova Sh. B.[3]
[1,2,3]Buxoro Davlat Universiteti;
nabiyaturayeva48@gmail.com nilufarmamatova1976@mail.ru s.b.merajova@buxdu.uz

Ushbu maqolada geometriya darslarida o'quvchilarning teorema, aksioma va qoidalarni chuqur nazariy o'zlashtirib olishi, masalalar yechimida o'quvchilarning tasavvur qilish qobiliyatini o'stirish va ularning ijodiy fikrlashi uchun imkon yaratish haqida fikr yuritiladi.

Bugungi kunda davlatimiz qudrati dastavval o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, shaxsiy mehnati bilan fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga hamkorlik qilishga qodir yuksak malakali mutaxassislar miqdori va sifati bilan belgilanadi. Fan va texnila taraqqiyoti iqtidorli kadrlarga nisbatan jamiyat talabidan kelib chiqqan holda maktab oldiga shaxsni har taraflama ijodiy ruhda tarbiyalashdek muhim vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Ijodiy shaxs fazilatlarining tiklanish jarayoni aynan maktabda boshlanadi. Mazkur ishlarni to'g'ri tashkil etish esa hammasidan muhimdir. Hozirgi zamon pedagogikasining qoidalarini, ya'ni barcha es-hushi joyida bo'lgan bolalar turli-tuman salohiyat va layoqatlarga ega ekaniligini yana bir karra tasdiqlaydi. O'quvchilardagi ana shu layoqatni ular uchun qulay va qiziqarli bo'lgan sohalarda namoyon etib tarbiyalash maktabning birinchi galdagi vazifasiga kiradi.

Geometriya darslarda masalalarni chuqur nazariy tadqiq etish fanning asosiy vazifasi bo'lib, bu masalalarni hayotiy tadqiq etish o'quvchining geometriya faniga qiziqishini uyg'otadi. Teorema va masalalardagi har bir shaklning hayotiy namunasi mavjud bo'lib, albatta o'quvchi uni o'z tasavvurida ko'ra olish uchun ijodiy fikrlashi kerak. Bunda pedagogning bilimi, mahorati, topqirligi asosiy rol o'ynaydi.

Geometrik masalalar yechimining 50foizni chizma tashkil etishi hammaga ayon. Bu o'z navbatida o'quvchini ijodiy fikrlashga undaydi: "Modomiki 13-15 yoshidayoq , har bir o'quvchi juda Kamoliddin Behzodday bo'lmasa ham, qariyib o'shanday rasm chiza olar ekan."Iqtidor jihatidan balki ular uncha yomon bajarilmagan bo'lishi mumkin, biroq, bunday rasmlar chizizsh o'quvchini ijodiy fikrlashiga yordam beradi.

Geometriya darslarida o'quvchining ijodiy faoliyati undagi bilim doirasidan chetga chiqishi mumkin, chunki bilim ijod poydevoridir. Geometriya fanida teorema va aksiomalarini yaxshi bilsak masalaning yechimini to'g'ri qo'ya olamiz . Bunda o'qituvchi sabog'i tufayli orttirgan bilimlarini o'quvchi amalda sinab ko'rib, masalani yechish orqali mustahkamlaydi.

O'quvchining geometriya faniga qiziqishini so'ndirib o'qishda charchatib zada qilib qo'ymaslik uchun birgina o'quv materialini bir xilda ha deb takrorlayverish maqsadga muvofiq emas. Bir xillikdan qochish uchun ilgari o'rganilgan bilimlarni yangi xilma- xil variantlarda (yangi masala yechish, yangi teorema isboti, har bir masala va teoremaning hayotiy tatbig'i) takrorlash ayni muddaodir. Turli xildagi masalarni yechayotgan o'quvchining barcha harakatlari o'qituvchi tomonidan doimiy va to'la nazorat ostida bo'lishi lozim. Agar o'quvchini yetarli darajada kamol topganligiga ishonch hosil qilgan bo'lsada o'qituvchi bu ma'suliyatini aslo bo'shashtirmasligi kerak. Nazorat susaytirilgan holda bilim va saviyasi yo butunlay yoqoladi yoki fanga qiziqishi, ishtiyoqi susayadi. Demak, o'quvchi faoliyatining o'qituvchi tomonidan doimiy nazorat qilinishi zarur .

Geometriya darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish uchun quydagi bosqichlardan foydalanildi:

1) O'quvchi zaruriy bilim , ko'nikma va malakaga ega bo'lmay turib biron bir teoremani isbotlay, geometrik masalani esa yecha olmaydi . Bino- barin o'quv jarayonida topshiriqlarni shunday berish kerakki, u oldin to'plangan ma'lumotlariga tayanib ish ko'ra olsin va undan unumliroq foydalana olsin.

2) O'quvchi vazifani bexato bajarishi kerak. Bexato degani geometrik ma'lumotlarga to'liq amal qilmoqdir . Geometrik qoidalarni bilish va ularni amalda qo'llash mahoratini oshiradi. Mahorat esa bilim va malakani mustahkamlaydi.

3) O'quvchining ijodiy faoliyatini mustaqil ravishda olib boradigan faoliyati bilan birgalikda olib qaraymiz. Chunki, ular bir biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir birini muntazam ravishda rivojlantirib boradi.

Adabiyotlar

1. **Alixanov S.** *Matematika o'qitish metodikasi.* Cho'lpon nashriyoti matbaa uyi. Toshkent 2011
2. **Perova M. N.** *Методика преподавание математики в коррекционной школе.* Москва 1999
3. **Ishmuxammedov R.** *Ta'limda innovatsiya.* Toshkent 2010.

УДК 510.75

Matematikani o'qitishning metodik prinsiplari haqida

To'rayev H.[1], Nomozova M.[2],
[1]Termiz davlat Pedagogika instituti; jahongirturaxanov1995@gmail.com1
[2]Termiz davlat universiteti; mahfiratnomozova@gmail.com2

O'zbekiston buyuk allomalar yurti. Bu yurtda dunyo tamadduni tarixining sahifalariga oltin harflar-la nomlari bitilgan, bizning ajdodlarimiz bo'lmish buyuk matematik olimlar - matematika sohasida tom ma'noda yangiliklar yaratgan al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi bobolarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. XX asrda yashab ijod etgan va ijod etayotgan T.Sarimsoqov, S.X.Sirojiddinov, M.Salohiddinov, T.Jo'rayev, SH.Alimov, SH.Ayupov kabi hozirgi zamon matematikasining taniqli vakillarini biz haqli ravishda yuqorida nomlari zikr etilgan buyuk ajdodlarimizning izdoshlari deb bilamiz.

Ma'lumki, texnika rivojlansa jamiyat rivojlanadi. Texnika rivojlanishi uchun matematika fani rivojlanishi kerak. Shuning uchun ham Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 7-maydagi PQ-4708 buyrug'iga asosan matematika sohasini rivojlantirining alohida chora-tadbirlarini ishlab chiqdilar.

Matematika faniga qiziqtirishni asosan 5-6 yoshdan boshlagan ma'qul, negaki bu yoshda bola atrof-muhitga, tabiatga, odamlarga va ular orasidagi munosabatlarga teran ko'z bilan qaray boshlaydi. Shuning uchun ham xuddi mana shu yoshdan boshlab matematikani amaliy hayot bilan bog'lab o'tish juda ham katta ahamiyatga ega. Bunga misol qilib, uzoq emas yaqinginada yashab ijod etgan buyuk olimlar: rossiyalik A.N.Kolmogorov, yurtdoshlarimiz T.Sarimsoqov, S.X.Sirojiddinovlar yoshlik chog'laridanoq matematikaga qiziqqanlar.Masalan, Andrey Nikolayevich Kolmogorov 5-6 yoshida quyidagi qonuniyatni ochgan:

$$1 = 1^2$$

$$1 + 3 = 2^2$$

$$1+3+5=3^2$$
$$1+3+5+7=4^2$$
$$\dots\dots\dots\dots\dots$$

Demak, yoshlikdan bolani matematikaga qiziqtirish bolaning kelajakda fanda kutilmaganda katta kashfiyotlar yaratilishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida fan-texnikaning yanada rivojlanishiga olib keladi.Matematikani o'qitishda bunday yo'l tutish matematikani o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Matematikani o'qitishning metodik prinsiplari haqida gap ketganda, avvalo, o'qitishning maqsadini aniqlash jarayonida bu maqsadga qanday qilib erishish mumkin, o'qitish metodikasi qanday bo'lishi kerak degan tabiiy savollarga duch kelamiz.Bu savol mavjud matematik metodlarning asosiy obyekti hisoblanadi. Shuning uchun ham bu savolga javob u yoki bu darajada foydalanilayotgan matematik metodlarni ichki tomondan matematiklarning o'zlari tomonidan o'zaro va tashqi tomondan esa mutaxassislarning tanqidiy o'rganishidan kelib chiqadi. Bu borada hattoki, yagona u yoki bu medod haqida bitta kafedrada faoliyat ko'rsatayotgan matematiklarning o'zlari o'zaro kelisha olmaydi.

Bu holatning murakkabligi va unga barham berishning qiyinchiligi bugungi kunda matematikani o'qitish metodikasining hali ilmiy sathga ko'tarilmaganligi bilan bog'lash va o'qituvchilarning tizimli tajribaga emasliklari bilan asoslash mumkin. Afsuski, ko'pgina matematiklar o'zlarining shaxsiy tajribalri bilangina chegaralanib qoladilar.

Matematikani o'qitish metodikasi to'g'risida gapirar ekanmiz, eng avvalo uning maqsadini aniqlab olishimiz kerak bo'ladi. Qachonki maqsad aniq bo'lganda, unga qanday erishish mumkin, o'qitish uchun qanday metodikani tanlash kerak degan tabiiy savol tug'iladi. Bu savolga u yoki bu darajada matematik metodlarni qo'llovchilar, ya'ni matematiklar ham, mutaxassislar ham tanqidiy nazar bilan qarashadilar.

Matematikani o'qitish metodikasining asosiy pirnsiplari quyidagilardan iborat: metodning soddaligi, tushunarliligi, tabiiyligi va qat'iy mantiqqa asoslanganligi, muntazam nazorat, talabchanlik, talabaga nisbatan ishonch, talabani rag'batlantirish va hokazolardir. Bundan tashqari o'qituvchining talabani jazolashga intilmasligi, talabaning bahosini o'zlashtirishni ko'tarish uchun oshirib qo'ymasligi o'qitish metodikasi prinsiplarining muhim jihatlaridan biridir.

Bu prinsiplarni o'z nuqtai-nazaridan har kim har xil tushunishi mumkin va unga o'zi xohlagan mazmunni berishni xohlaydi.Soddalilik prinsipi, ya'ni bayon qilishning soddaligi eng avvalo kursning tugal va sodda qurilganligi, tuzilishining bosh g'oyaga mos ekanligi.

Soddalik haqidagi prinsip avvalo kursning soddalik bilan tuzilganligi, unga tushunishning oson kechishi. Bu pirnsipning eng asosiy g'oyasi vaqtga va asosiy metodlarga e'tibor qaratilishidir. Vaqtning ko'p qismi asosiy metodlarga va faktlarga ajratilishiga e'tibor qaratishdir.

Qadimda odamlar oddiy natural sonlar ustida amallarni bajarishni bilmaganlar. Yillar o'tib, zamonlar o'tib zarurat yuzasidan sodda-sodda amallarni bajarishni o'rganganlar. Geometrik shakllarni, masalan, chiziq, kesma, uchburchak, to'rtburchak, kvadrat, aylana, doira, masofalarni o'lchash, yuzani o'lchash kabi amallarni o'rgana boshlaganlar. Bir misol keltiraylik,masalan, qo'shish va ko'paytirishning xossalarini qanday qilib amaliyotga qo'llash, qanday qilib katta sonlarni osonroq usul bilan qo'shish va ko'paytirish mumkin ekanligini qaraylik.

Ma'lumki, qo'shishning asosan 5 ta, ko'paytirishning 6 ta qonuni bor, ya'ni:

1. $a+v$ amali hamma vaqt bajariladi, ya'ni shunday son mavjud.
2. $a+v$ amali hamma vaqt bir qiymatli aniqlanadi.
3. $(a+v)+s=a+(v+s)$ qonuni bajariladi.
4. $a+v=v+a$ hamma vaqt bajariladi.
5. $v>s$ munosabatdan hamma vaqt $a+v>a+s$ munosabat kelib chiqadi.

Ko'paytirishning esa:

6. $a\cdot v$ hamma vaqt bajariladi.
7. $a\cdot v$ bir qiymatli.
8. $a\cdot(v\cdot s)=(a\cdot a\cdot v)\cdot s$ qonun bajariladi.

9. $a \cdot v = b \cdot a$ qonun bajariladi.

10. $v > s$ munosabatdan hamma vaqt $a \cdot v > a \cdot s$ munosabat kelib chiqadi.

11. $a(v + c) = a \cdot b + a \cdot c$ qonuniyat bajariladi.

Endi bu qonuniyatlardan nimalarda va qanday qilib foydalanishligiga bir misol qaraylik, ya'ni: $12 \cdot 13$ amalini qanday qilib sodda va bir xonali sonlarni ko'paytirishga keltirib bajarish mumkin? Bunga quyidagicha kirishamiz:

$$(10+2)\cdot(10+3) = (10+2)\cdot 10+(10+2)\cdot 3 = 10\cdot 10+2\cdot 10+10\cdot 3+2\cdot 3 = 100+20+30+6 = 150+6 = 156$$

Bu usul, albatta, boshlang'ich sinflarda bolalarga o'rgatish, ularda ikki xonali sonlarni ko'paytirishda ko'nikma hosil qilish uchun qo'llaniladi. Xuddi shunday usul bilan uch xonali sonlarni ham ko'paytirish mumkin.

Darsda yaxshi samaraga erishish uchun darsni yaxshi tashkil qilish va eng yaxshi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham darsni yaxshi tashkil qilishning zarur shartlaridan biri o'qituvchining yuqori darajadagi bilimga ega bo'lishidir degan gap haq gap. Eng asosiysi talabaga teoremani isbot qilib ko'rsatishda unga oldin maqsadni, g'oyani va maqsadga erishish metodni yaxshi tushunsin, albatta, isbot sodda va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak. Buning uchun eng oson misollardan foydalanish kerak.

D.Gilbert oddiy differensial tenglamalar nazriyasidan ma'ruza o'tishda doskaga $y'' = 0$ va $y''+y = 0$ tenglamalarni yozib qo'yadi va: «Gospoda, na nix vi mojete izuchit vsyu teoriyu i daje ponyat raznitsu v zadachax s nachalnimi ili s krayevimi usloviyami» [1.95]. Bunda u matematik qat'iylikka asosiy e'tiborni qaratadi.Isbotlarni sodda va tushunarli bayon qiladi. Eng asosiysi talabaga teoremani isbot qilib ko'rsatishdan oldin u maqsadni, g'oyani va maqsadga erishish metodlarini yaxshi tushuntiradi, va, albatta, isbotni sodda va tushunarli tilda oson misollar bilan bayon qiladi.

Matematikada isbot - ma'ruzachinigina (dlya sobstvennogo udovolstviya) zavqlantiradi, talabalarni esa hayratlantiradi. Bu degani hamma teoremalarni isbotlab ko'rsatish kerak ekanda degani emas, albatta. Chunki teoremalarni ketma-ket isbotni beraverish ham talabalarni qiynab qo'yishi mumkin. Bu yerda eng asosiysi talaba g'oyani tushunishi kerak. G'oyani misollar bilan tushintirish esa talabalarning mavzuni yaxshi o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **SH.Alimov, R.Ashurov.** *Matematik analiz 1-qism, Toshkent* Mumtoz so'z, 2018.
2. **H.To'rayev.** *Matematika* Termiz, Surxon-nashr,2020.
3. **Toshmetov O'. va boshqalar.** *Matematika* Toshkent Extremum Press, 2018.
4. **L.D.Kudryavsev, M.** *Sovremennaya matematika i yeye prepodavaniye.* Nauka, 1980.

Nostandart masalalarni yechishning evrevtik usullari.

Turdiyev A.
Termiz davlat universiteti umidjonturdiyev6@gmail.com

Bugungi kunda ta'lim tizimining mohiyatini anglash va mazmunini egallashda asosiy e'tibor ko'proq o'quvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosiga qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev olimlar, yosh tadqiqotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuvda matematikada ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan bog'lash, raqamli iqtisodiyot uchun mustahkam poydevor yaratish borasidagi dolzarb vazifalarga to'xtalib o'tdi. . . . matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi, – dedi Prezident[3].

Umumiy o'rta ta'limning matematika fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari" qatorida:

-"inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

-o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

-fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish" kabilar ko'rsatib o'tilgan[2].

Endi, nostandart masalalarni yechishda foydalanish mumkin bo'lgan ba'zi evristik usullarni qarab chiqamiz[4].: 1. Masalani yechish bo'yicha biror ilmiy farazni ilgari surish;

2. Masala shartidagi berilganlarni tahlil qiladi, aniqlashtiradi, abstrakt tarzidagi ma'lumotlarga aniqroq shakl beradi.

3. Soddalashtirish, ob'ektning sifatli xarakteristikalarini o'zgartirmasdan masalada qaralayotgan ob'ektning holatini variatsiyalash.

4. Umumlashtirish - berilgan nostandart masala unga nisbatan umumiyroq bo'lgan masala bilan almashtiriladi. Bu yerda berilgan masalaning yechimi umumlashgan masaladan bevosita kelib chiqsin.

5. Berilgan nostandart masalani grafik orqali tahlil qilish. Bu usuldan foydalanish turli darajadagi simvollarni ko'rgazmali ifodalashda asos bo'lib xizmat qiladi.

6. Abstraksiyalash - bu qaralayotgan ob'ektlarning konkret detallarini tashlab yuborish, ularning nisbatlarini va aloqalarini ajratib qarash.

7. Anologiya (o'xshatishlik) -

8. Paradigma - bu berilgan masalani boshqacharoq ifodalash va bu ifodalash orqali berilgan masalaning yechimini ko'ra olish.

9. Variatsialash - o'quvchi masalani yechish davomida ixtiyoriy ravishda bitta yoki bir nechata kattaliklarni tashlab yuboradi yoki o'zgartiradi hamda mantiqiy fikrlash asosida bunday almashtirishlardan qanday natijalar kelib siqishi mumkinligini aniqlashtiradi.

10. Chala induksiya - alohida fikrlarning rostligini bevosita tekshirib ko'rish. Bunday yondashuv umumiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

11. Modellashtirish - hodisa va jarayonlarni matematika tilida ifodalash.

12. Oxiridan oldinga kelish usuli (analiz va sintez).

13. Qo'shimcha o'zgaruvchilar kiritish usuli. (masalan)

Tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, matematika o'qitish jarayonida masalaviy yondashuv ya'ni, o'qitish (metodi) vazifasini bajaruvchi masalalar o'quvchilarda qator fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin ekan. Jumladan:

a) berilagan masalaga teskari masalani tuzish va yechish o'quvchilarda zarur fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi;

b) masala shartiga ko'ra unga mos chizmani chiza olish, ya'ni fazoviy idrokni shakllantirish;

v) berilgan masalani yechishning turli xil usullarini topa olish ko'nikmasini shakllantirish;

g) masalaning ratsionalroq yechimini topa olish ko'nikmasini shakllantirish;

d) anologiyaga ko'ra tasdiqlarni shakllantirish ko'nikmasi. Ijodiy nostandart masalalar quyidagi talablarni qanoatlantirishi zarur:

1) o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi, yangilik elementlariga ega bo'lgan masalalar;

2) tadqiqotchilik elementlarini va mustaqil faoliyat yuritishni talab etuvchi masalalar;

3) o'quvchilarda yangi faktlarni va yechish metodlarini qidirishga qiziqish uyg'otish natijada yangi bilimlarning egallanishini ta'minlovchi masalalar;

4) yechish natijalarining variativligini yoki boshqa yechish variantlarining yo'qligini ko'rsatuvchi masalalar;

5) shartida masalani yechish uchun ortiqcha ma'lumotga ega bo'lgan yoki yetarli miqdordagi ma'lumotlari bo'lmagan masalalar;

6) oʻquvchilarda fazoviy tasavvurni, idrokni, intuitsiyani rivojlanishiga yoʻnaltirilgan masalalar.

Oʻquvchilarning ijodiy faoliyatlarini tashkil qilish muammolarini koʻrib chiqish uchun biz, ijodiy faoliyat jarayonining asosiy bosqichlariga toʻxtalamiz, chunki bu bosqichlar ixtiyoriy ijodiy faoliyatning asosida yotadi.

Ijodiy faoliyatning birinchi bosqichi - muammoni anglash, shakllantirish va qoʻyishdan iborat. Muammoni aniq va ravshan shakllantira olish ijodiy faoliyatni boshlashning muhim bosqichidir.

Ikkinchi bosqich - bu bosqichda muammo prinsipial yechimni topib, ushbu jarayonda masalani yechishga "yoʻl" topiladi. Bu bosqichning asosida inson (xususan, oʻquvchilar) ning bilimlari yotadi, shuning uchun oʻquvchilar ijodiy faoliyati ular tomonidan egallangan bilimlar va tasavvurlar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Uchinchi bosqich - muammo yechimini batafsil amalga oshirishdan iborat boʻlib, yechim aniq shaklga ega boʻladi. Bu bosqich egallangan bilimlar, harakat usul va uslublari asosida amalga oshiriladi.

Nostandart masalalarni yechishda, noan'anaviy yechish usuli aniq bir formula orqali berilmaydigan, sun'iy usuldan (yoki «evrik» qoida) foydalaniladi.

Matematikadan nostandart masalalar tizimini tahlili umumta'lim maktablari oʻquv jarayonida oʻquvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun didaktik imkoniyatlar mavjudligini koʻrsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. *Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Oʻzbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi.* PF-5712-sonli Farmoni. - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
2. *Oʻrta ta'limning davlat ta'lim standarti va oʻquv dasturi. Fizika, matematika, informatika, biologiya, geografiya, kimyo.* Oʻzbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 2017 yil 18 avgustdagi 43-son va Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2017 yil 18 avgustdagi 65. QQ-sonli qoʻshma qarori bilan tasdiqlangan. T.: -2017. 142 b.
3. *Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston respublikasi fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida* Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-4387/3397-son. 09.07.2019 y.
4. **Sodikov U. J.** *Masalaviy yondashuv oraqali oʻquvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi* 13.00.02. Dissertatsiya. 2020 yil.

Talabalarni matematika darslarida tanqidiy fikrlashga o'rgatish

Tursunova Nilufar (SamDU magistranti),
Arziqulov A.U (SamDU dotsenti),
Tursunov Dilbek (SamDU magistranti)
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Matematika fakulteti magistranti
gmail: eshpolatovanilufar@gmail.com

